



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

ORGANIK KIMYO FANIDAN

**amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma
II-qism**



TOSHKENT 2018

**BBK 24.2
O-64
UDK 547**

«Organik kimyo» fanidan amaliy mashg’ulotlar uchun o‘quv- uslubiy qo‘llanma. Tuzuvchilar: Eshmuxamedov M.A., Ismoilov R.I., Usmonova G.A. –Toshkent, ToshDTU, 2018. II-qism. -160 b.

«Organik kimyo» fanidan amaliy mashg’ulotlar uchun o‘quv- uslubiy qo‘llanma Toshkent davlat texnika universitetining “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan.

ToshDTU ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga asosan chop etildi.

**Taqrizchilar: Abdushukurov A.K., k.f.d., prof.. O‘zMU
Muxitdinov X.X., t.f.n., dots. ToshDTU**

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2018

SO‘Z BOSHI

Ushbu organik kimyodan amaliy mashg’ulotlar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan bakalavriat talabalari uchun mo‘ljallangan. Bu qo‘llanma talabalarning organik kimyodan umumiy 54 soat hajmdagi amaliy mashg’ulotlarni bajarishni o‘zlashtirish asosida tuzilgan.

Qo‘llanma boshida talabalar organic birikmalarni sifat va miqdor tahlilini o‘rganish, ularning asosiy sinflari va nomlash usullari, har bir sinf ordanik birikmalarning reaktsion qobiliyatları, reaktsiyalarning tezligi va mexanizmlari kabi bilishlari zarur bo‘lgan kerakli mashg’ulotlar keltirilgan. Keyingi bo‘limlarda esa barcha sinf organic birikmalarni aniqlash va o‘rganishlari uchun nazariy bilimlar va amaliy misol va masalalarni echish usullari hamda mustaqil ishlashlari uchun nazorat variantlari berilgan.

Shuningdek, navbatdagi bo‘limlarda muhim bo‘lgan har bir sinf organik birikmalarni nomlanishi, tuzilishi, olinish usullari va fizik-kimyoviy xossalalarini chuqurroq o‘zlashtirishlari uchun kerakli ma’lumotlar berilgan. Organic birikmalarni sintez qilishdagi asosiy va qo‘sishimcha reaksiyalari va ularning mexanizmlari, o‘rinbosarlarning yo‘naltirish qoidalari, reaktsiyaning ketishiga fuktsional guruhlarning ta’siri va reaktsiya mehanizmlari bosqichlari keltirilgan. Bu talabalarda organic moddalarning reaksiyon qobiliyatlarini chuqurroq o‘zlashtirishlariga yordam berishiga ishonamiz.

Qo‘llanmadan organik kimyo kursi o‘qitiladigan boshqa o‘quv yurt talabalari va o‘rta maktab o‘quvchilari ham foydalanishlari mumkin.

Mazkur amaliy mashg’ulotlar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi ba’zi kamchiliklardan holi emas. Shuning uchun mualliflar qo‘llanma haqida fikr va mulohazalaringizgni samimiyat bilan qabul qiladilar.

Mualliflar.

12-AMALIY MASHG'ULOT. Karbonil birikmalar. Aldegid va ketonlarning tuzilishi, olinish usullari va xossalari.


1-mashg'ulot. Yog' qator aldegid va ketonlar. Tuzilishi, izomeriyasi, nomenklaturasi. Olinish usullari. Fizik va kimyoviy xossalari. Birikish reaksiyalari. Nukleofil birikish reaksiyalarining mexanizmi. Oksidlanish va kondensatlanish reaksiyalari. Ayrim vakillari. Aldegidlar va ketonlar mavzusiga oid masalalar echish

Darsning maqsadi: Karbonil birikmalarning tuzilishi. Nomlanishi. Olinish usullarini o'zlashtirish.

Molekulasida $>\text{C}=\text{O}$ guruh tutgan birikmalarga oksobirimlar deb aytildi.


Agar karbonil guruh bitta vodorod va alkil guruh bilan bog'langan bo'lsa aldegidlar, karbonil guruh ikkita radikal bilan bog'langan bo'lsa ketonlar deyiladi.

Karbonil birikmalar sistematik va ratsional nomenklaturalar asosida nomlanadi:





1. Aldegidlar va ketonlarni alkenlarni oksidlash orqali olinadi:


a) Alkenlar CrO_3 bilan sirkal kislota eritmasida ta'sirlashadi va qo'sh bog' uziladi, natijada aldegid va ketonlar hosil bo'ladi. Reaksiya sharoitida aldegid oksidlanib karbon kislotaga aylanadi:




b) Spirtlarni oksidlash yoki Cu, Pt, Pd ishtirokida degidrogenlash bilan oksobirikmalarni olish mumkin. Birlamchi spirtlarni oksidlab aldegid, ikilamchi spirtlarni oksidlab esa ketonlar olinadi:



2. Geminal digalogenalkanlar hidroliz qilinganda ham aldegid va ketonlar hosil bo‘ladi:



Alkinlar simob tuzlari ishtirokida kislotali muhitda suvni biriktiradi (M.G.Kucherov, 1881). Bu reaksiyada atsetilenden sırka aldegid, boshqa alkinlardan esa ketonlar hosil bo‘ladi:




Reaksiyaning birinchi bosqichida enol hosil bo‘ladi va u qayta guruhlanib karbonil birikmaga aylanadi. Atsetilenga suvning birikishi natijasida atsetaldegid hosil bo‘ladi:




Nazorat savollari:

1. Quyidagi birikmalarini sistematik nomenklatura bo‘yicha nomlang:



2. Asosiy zanjirida 5 ta uglerod atomi bo‘lgan ketonlarning tuzilish formulasini yozing.

3. Quyidagi o‘zgarishni qanday reaksiyalar orqali amalga oshirish mumkin:



4.a).Butanol-2; b) 3-metilbutanol-1 larning oksidlanishi natijasida qanday karbonil birikmalar hosil bo‘ladi?

5.Grinyar reaksiyasidan foydalanib sirkva propion aldegidlarini sintez qiling.



6.Propion kislotaning kalsiyli tuzi piroliz qilinsa, qanday keton hosil bo‘ladi?

Izomeriyasi. Nomenklaturasi

1. C_4H_8O tarkibli aldegid va ketonlarning barcha izomerlarini yozing. Ularni IYUPAK nomneklaturasi bo‘yicha nomlang.

2. Quyidagi birikmalarning struktura formulalarini yozing: a) propion aldegid; b) izovalerian aldegid; v) diizopropilketon; g) trimetilsirka aldegid; d) 3-metilpentanal; e) 2-geksanon.







3. Quyidagi karbonilli birikmalarni nomlang:



4. $C_6H_{12}O$ tarkibli barcha metilketonlarning struktura formulalarini yozing va nomlang.


5. Kapron aldegidiga izomer bo‘lgan barcha ketonlarning struktura formulalarini yozing. Rasional nomenklaturaga muvofiq nomlang.

6. Quyidagi birikmalarni nomlang:



7. Quyidagi birikmalarning struktura formulalarini yozing: kroton aldegidi; metilallilketon; 2,3-pentandion; 4-metil-2-pentanal; 2-metil-2-butenal; keten.

8. Quyidagi struktura formulasi uchun nechta stereoisomer mos keladi:








Ularning farqi nimada? Ularni nomlang.

9. a) Oddiy dialdegid; b) oddiy α -, β - va γ -diketonlarning struktura formulalarini yozing va nomlang.

10. C_8H_8O tarkibli aromatik qator karbonilli birikmalarning barcha izomerlarini yozing va nomlang.

11. Quyidagi birikmalarni nomlang:



12. Quyidagi birikmalarning struktura formulalarini yozing: a) α -fenilpropion aldegid; b) o-nitrobenzoy aldegid; g) uchlamchi-butilfenilketon; d) 2,6-disulfobenzoy aldegid; e) n,n'-di(dimetilamino)benzofenon.


13. Propion aldegidni: a) olefinlardan – oksosintez va ozonoliz orqali; b) digalogenlihosilalardan gidroliz orqali; v) bir atomli spirlarni oksidlash orqali; g) karbon kislotalarni termik parchalash orqali; d) karbon kislota xlorangidridini qaytarish orqali; e) Grinyar reaksiyasidan foydalanib olish reaksiya sxemalarini yozing.

14. a) Spirlarni degidrirlab, b) olefinlarni ozonoliz qilib, v) karbon kislotalarni kalsiyli tuzlarini quruq haydab, g) Grinyar usulida, d) Kucherev usulida metiletirketon hosil qilish reaksiya sxemalarini yozing.

15. 1-Buten va 2-buten oksosintezidan qaysi aldegidlar hosil bo‘ladi? Reaksiya sxemalarini yozing.

16. a) asetilen; b) metilasetilen; v) butilasetilenlarning Kucherev usulida gidrolizidan qanday birikmalar hosil bo‘ladi?

17. Quyidagi o‘zgarishglarni to‘ldiring:





Asetaldegidni asetilendenan vinilalkil efirlari orqali olish usulining Kucherev usuli bo‘yicha olinish usulidan qanday afzallik tomonlari bor?

18. O‘zgarishlarni amalga oshiring:



19. Quyidagi spirlarni oksidlash natijasida qanday karbonilli birikmlar hosil bo‘ladi:




Boshlang’ich va oxirigi mahsulotlarni nomlang.

20. Quyidagi aldegid va ketonlar qaysi spirlarni oksidlash orqali hosil qilinishi mumkin: a) metiletilketon; b) izopropilsirka aldegid; v) trimetilsirka aldegid; g) etil-ikkilamchi-butilketon? Reaksiya sxemalarini yozing, sharoitlarni ko‘rsating.


21. a) Metil-; b) ikkilamchi-butil-; v) ikkilamchi- amil-spirlarni katalitik degidrirlash natijdasida qanday birikmalar hosil bo‘ladi?

22. Quyidagi α -glikollarni oksidlanishidan qanday birikmalar hosil bo‘ladi:




α -Glikollarni yod kislotasi bilan oksidlash jarayoni qanday amaliy ahamiyatga ega?

23. Quyidagi o‘zgarishlarni to‘ldiring:



24. Quyidagi o‘tishni qanday amalga oshirish mumkin:



25. Butil spirtidan a) moy aldegid; b) metiletilketon hosil qiling.

26. Sirka kislota bug’larini qizdirilgan katalizator (ThO_2 , MnO_2) ustidan o‘tkazilganda boradigan jarayonning reaksiya sxemasini yozing.

Jarayon sirka va propion kislotasi, propion va chumoli kislotasi ishtirokida olib borilsa qanday birikmalar hosil bo‘ladi?

27. Tegishli karbon kislotalarning kalsiyli tuzlarini piroliz qilib, a) metilpropilketon, b) diizopropilketon, v) valerian aldegidlarini hosil qiling.

28. Butil spirtidan foydalanib, dipropilketon va dibutilketonlar hosil qiling.

29. Diizopropilketonni: a) karbon kislotalarning *S*-tuzlarini quruq xaydash usuli bilan; b) tegishli spirlarni oksidlash orqali; v) tegishli alkenlarni ozonolizi orqali hosil qiling. Bu ketonni Kucherev usuli bo‘yicha asetilen uglevodorodlarini gidroliz qilib olish mumkinmi?

Tuzilishi va xossalari


65. Karbonil guruhining tuzilishini harakterlang.

Guruhlaridagi o‘xshashlik va farqlar nimada?




66. Aldegid va ketonlardagi karbonil guruhlari uchun qaysi reaksiyalar harakterli? Bu reaksiyalar qaysi mexanizm orqali amalga oshadi?

67. Quyidagi birikmalarni nukleofil birikish reaksiyalariga kirishuvchanlik qobiliyatini ortib borish tartibida joylashtiring:



Javobingizni izohlang.

68. Quyidagi birikmalarning qaysilari nukleofil agentlar bilan osonta’sirlashishini tushuntiring.



69. Quyidagi omillarni tushuntiring: 1) aldegid (yoki keton) larning qaynash harorati, tegishli spirlarnikidan past, 2) quyi aldegid va ketonlarning qaynash harorati teng molekulyar massaga ega bo‘lgan uglevodorodlardan $50 - 80^{\circ}S$ ga yuqori.


70. Metiletiketon va moy aldegidlar uchun umumiyl bo‘lgan reaksiyalarni yozing, shuningdek kimyoviy xossalari bo‘yicha farq qiladigan xususiyatlarni ko‘rsating.

71. Metiletiketon, izomoy aldegid, diizopropilketonlarni katalitik qaytarish natijasida qanday birikmalar hosil bo‘ladi?

72. a) Valerian aldegid; b) dipropilketonlarni Meerveyen – Pondorf – Verley usuli bo‘yicha qaytarish natijasida nimalar hosil bo‘ladi? Mahsulotlarning unumini qanday oshirish mumkin?

73. 1) Ni ishtirokida vodorod bilan; 2) litiy alyumogidrid bilan moy va kroton aldegidlarni qaytarish reaksiya sxemalarini yozing. 2-Qaytarish usulining afzallik tomonlari nimada?


73. Quyidagi o‘zgarishlar sxemasini to‘ldiring:




74. Aseton, shuningdek propion aldegidni HCN bilan ta’sirlashuv reaksiyasini yozing. Reaksiya mexanizmini tahlil qiling. Ularni qaysi biri va nima uchun vodorod sianid bilan oson ta’sirlashadi? Nima uchun asoslar ta’sirlashuvni tezlashtirida, kislotalar esa jarayonni sekinlashtirishini tushuntiring.

75. Tegishli karbonilli birikmalardan quyidagi oksinitrillarni hosil qiling:

a)



b)



76. a) Sirka aldegid; b) aseton; v) diizopropilketon; g) etilpropilketon; d) trimetilsirka aldegidlardan qaysilari bisulfidli hosilalar hosil qiladi? Bisulfidli birikmalardan qayta aldegid yoki ketonlarni qanday hosil qilish mumkin? Reaksiya sxemalarini yozing.

77. Asetonni NaHSO_3 bilan ta’sirlashuvi misolida bisulfidli hosila hosil bo‘lish mexanizmini tahlil qiling. Nima uchun aldegid va ketonlarga HCN ning birikishi katalizator ishtirokida, NaHSO_3 ning birikishi esa oson va katalizatorlarsiz amalga oshadi.

78. Valerian aldegid, valerian kislota va amil spirtlarini bir-biridan farqlaydigan reaksiya sxemalarini yozing.

79. Formaldegidni, asetaldegidni va asetonni propilmagniyyodid bilan reaksiyalarini yozing.

80. O‘z-o‘zidan degidratlanish orqali boradigan, karbonil guruhi guruhiga nukleofil birikish reaksiyalariga uchta misol yozing.

81. Sirka aldegidni ammiak bilan reaksiyasini yozing. Reaksiya mexanizmini tahlil qiling.


82. Asetonni gidroksiamin, gidrazin, fenilgidrazinlar bilan reaksiyasini yozing. Hosil bo‘lgan mahsulotlarni nomlang.

2-mashg’ulot. Aromatik aldegid va ketonlar. Tuzilishi, nomlanishi, olinish usullari hamda yog‘ qator aldegid va ketonlardan farq qiluvchi reaksiyalari. Klyayzen, Perkin reaksiyalari. Zinin reaksiyasi. Ayrim vakillari va ularning ishlatilishi. Aldegidlar va ketonlar mavzusiga oid masalalar echish.

Darsning maqsadi: Talabalarga mavzu haqida to‘liq ma’lumot berish. DTS talablari asosida talabalarga bilim, malaka va ko`nikmalarni hosil qilish.

Aromatik aldegid va ketonlar molekulasida karbonil guruhi benzol halqasi uglerodiga yoki yon zanjirga bog’langan bo‘ladi.


Aromatik aldegidlar ikki xil bo‘ladi:




Ikkinci xil (b) tuzilishdagi aromatik aldegidlar alifatik qator aldegidlaridan xossalari bilan kam farq qiladi.

Olish usullari


1. Aromatik uglevodorodlarni kislorod bilan oksidlash:




2. Aromatik spirlarni oksidlash:




3. Aromatik digalogenalkanlar gidrolizi:



Xossalari. Aromatik aldegidlar alifatik qator al'degidlari kirishadigan barcha reaksiyalarga kirishadi. Masalan, benzoy aldegidi ishqoriy sharoitda oksidlanish-qaytarilish reaksiyasiga kirishib, benzil spirti va benzoy kislotasini hosil qiladi (Kannitsaro):




Benzaldegidning kaliy sianidi ishtirokida kondensatsiyalanishi benzoin kondensatsiya deb yuritiladi. Hosil bo'lgan modda esa «benzoin» deb ataladi:




Bu kabi reaksiyaga barcha aromatik aldegidlar kirishadi.


Reaksiya mexanizmi:



Aromatik ketonlar. Ketonlar molekulasida karbonil $>\text{C}=\text{O}$ guruhni ikkita radikalga bog'langan bo'lib, ulardan bittasi albatta aromatik qoldiq (radikal) bo'lishi kerak:





atsetofenon



benzafenon

Bu xildagi ketonlar asosan aromatik uglevodorodlarni Fridel'-Krafts usulida kislota xlorangidridlari bilan AlCl_3 ishtirokida atsillab olinadi:



Xossalari. Aromatik ketonlar alifatik qator ketonlariga xos hamma reaksiyalarga kirishadi. Ular oksidlanadi (kuchli oksidlovchilar ta'sirida), qaytariladi, spirtlar va HCN ni biriktiradi, galogenlanadi, karbonil kislorodini galogenga almashtiradi, kondensatsiyaga kirishadi, oksim, gidrazon va boshqa hosilalar beradi.

Nazorat savollari.

1. Toluoldan, benziliden xloriddan va benzil spirtidan tegishli reaksiyalar yordamida benzaldegid hosil qilish reaksiyalarini yozing.
2. 1-fenil-1,1-dixloretandan, 1-fenil-1-etanoldan va benzoldan tegishli reaksiyalar yordamida atsetofenon olish reaksiyalarini yozing.
3. Benzaldegid va atsetofenonni nitrolash va bromlash reaksiyalarini yozing va sharoitini ko'rsating.
4. Fenilsirka, *n*-toluil al'degidlaridan qaysi biri Kannitsaro reaksiyasiga kirishadi. Reaksiya tenglamasini yozing.
5. *n*-Toluil al'degid, *n*-nitrobenzal'degid va *n*-metoksibenzaldegidlarning benzoin kondensatsiyasi mahsulotlarini yozing.

Misol va masalalar.

1-varint

1. Benzoaldegid va fenilsirka aldegidlarni nukleofil birikishi reaksiyasiga kirishuvchanlik qobiliyatini solishtiring. Misollar keltiring.
2. Benzaldegid va propion aldegidlari misolida aromatik va yog' qator aldegidlari uchun umumiy bo'lgan reaksiya sxemalarini yozing.
3. Benzoaldegidni havo kislorodi bilan oksidlanishidan qanday birikma hosil bo'ladi? Reaksiya sxemasini yozing.

2-varint

1. n-Toluol aldegidini HCN , $NaHSO_3$, C_6H_5MgBr (ab.efir) lar bilan reaksiyalarini yozing.

2. n-Xlorbenzoy aldegidni hidroksiamin, hidrazin va fenilhidrazinlar bilan reaksiyalarini yozing.

3. Benzaldegidni yog' qatori aldeidlardan farqlovchi reaksiya sxemalarini yozing.

3-varint

1. a) Benzoy va moy; b) n-toluil va fenilsirka aldeidlarni farqlaydigan oddiy reaksiyalarni yozing.


2. Quyidagi aldeidlarning qaysilari Kannissaro reaksiyasiga kirishadi:
a) chumoli; b) sirka; v) n-toluil; d) trimetilsirka.

3. Nima uchun benzaldegid va chumoli aldeidlardan Kannissaro reaksiyasi bo'yicha aksariya chumoli kislota va benzil spirti hosil bo'ladi?


4-varint

1. Kannissaroning «Perekrestnoy» reaksiyasi deb nimaga aytildi. n-Metoksibenzaldegidni formaldegid bilan Kannissaroning «Perekrestnoy» reaksiyasi sxemasini yozing. Uning oddiy Kannissaro reaksiyasidan qanday afzalliklari bor.

2. Quyidagi birikmalar uchun ichki molekulyar Kannissaro reaksiyalarini yozing:



3. Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshiring:



Barcha oraliq mahsulotlarni nomlang.

5-varint

1. Benzaldegidni benzin kondensatlanish reaksiyasini yozing. Jarayonda qanday katalizatorlardan foydalanish mumkin?



2. a) n-toluil va benzaldegid; b) n-metoksibenzaldegid va n-xlorbenzaldegid aralashmalaridan qanday tuzilishga ega bo'lgan benzoinlar hosil bo'ladi?

3. a) C_6H_5CHO va $n-CH_3C_6H_4CHO$; b) C_6H_5CHO va CH_3CH_2CHO ; v) $C_6H_5CH=CH-CHO$ va $C_6H_5CH_2CHO$; g) C_6H_5CHO va $(CH_3)_2CH-CH=CH-CHO$ juft birikmalarning ta'sirlashuvidan aldol va kroton

kondensatlanish jarayonlarini amalga oshirish mumkinmi? Reaksiya sxemalarini yozing va javobingizni izohlang.

6-varint

1. a) Asetaldegid; b) moy aldegid; v) metiletiketonlar bilan benzaldegidning ishqorlar ishtirokida ta'sirlashuvidan qanday birikmalar hosil bo'ladi?
2. n-Toluolaldegidni CH_3COONa ishtirokida (Perkin kondensatlanish) sirka angidiridi, b) anilin va v) fenol (2 mol) lar bilan reaksiyalarini yozing.
3. Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshiring:



7-varint

1. Benzaldegiddan foydalanib: a) β -fenilpropion kislota; b) β -fenil- β -aminopropion kislotalar hosil qiling.

2. a) Aldol va kroton kondensatlanish reaksiyalariga kirishadigan; b) aldol hosil qiladi, lekin kroton kondensatlanish reaksiyasi mahsulotini hosil qilmaydigan; v) Kannissaro reaksiyasiga kirishmaydigan aromatik yoki yog'-aromatik qator birikmalariga uchtadan misollar keltiring. Reaksiya sxemalarini yozing.

3. Aniq misollar orqali benzofenon va asetondan keton guruqlarining reaksiyaga kirishuvchanlik qobiliyatini ko'rsating.

8-varint

1. Propiofenonni: a) natriy metalli (spirtdagi); b) rux (HCl) bilan qaytarilish reaksiyalarini yozing.
2. Benzofenondan benzopinakon hosil qiling.
3. Asetofenonni benzaldegiddan qanday reaksiyalar yordamida farqlash mumkin?

13-AMALIY MASHG‘ULOT. Karboksilli birikmalar va ularning funksional hosilalarini aniqlash.


1-mashg’ulot. To‘yingan bir asosli kislotalar. Tuzilishi, izomeriyasi, nomenklaturasi, olinishi va xossalari. To‘yingan ikki asosli kislotalar. Tuzilishi, olinishi va xossalari. Karbon kislotalar mavzusiga oid masalalar echish.

Darsning maqsadi: Talabalarga mavzu haqida to‘liq ma’lumot berish. DTS talablari asosida talabalarga bilim, malaka va ko`nikmalarni hosil qilish.

Molekulasida karboksil guruhi -COOH tutgan uglevodorodlarning hosilalariga karbon kislotalar deyiladi. Karbon kislotalar karboksil guruhining soniga va uglevodorod qoldig’ining tabiatiga qarab, monokarbon, dikarbon va polikarbon kislotalarga, karbon kislotalarning funksional hosilalariga, uglevodorodning radikalida har xil funksional guruuhlar tutgan kislotalarga va ko‘mir kislota hosilalariga bo‘linadi.

Monokarbon kislotalar uglerod radikalining tabiatiga qarab:

To‘yingan monokarbon kislotalar $C_nH_{2n+1}COOH$ va halqa tutgan kislotalarga;



To‘yinmagan monokarbon kislotalarga $C_nH_{2n-1}COOH$;
 $C_nH_{2n-3}COOH$

Arenmonokarbon kislotalarga $ArCOOH$, $ArCH_2COOH$,
 $ArCH=CHCOOH$ bo‘linadi.

Karbon kislotalarni tarixiy va sistematik nomenklaturada nomlanadi. Karbon kislotalarni sistematik nomenklaturada nomlash uchun uglevodorod nomiga kislota so‘zi qo‘shib aytildi. Masalan:

H-COOH metan kislota, chumoli kislota


CH_3COOH etan kislota, sirka kislota

CH_3-CH_2COOH propan kislota, propion kislota


$CH_3(CH_2)_2COOH$ butan kislota, moy kislota

Ammo ko‘p kislotalar tarixiy nomda nomlanadi.


Ba’zida tarmoqlangan tuzilishga ega bo‘lgan kislotalarni nomlashda α -, β -, γ -, δ harflaridan foydalaniladi:



Kislotalarni sirka kislota asosida ham nomlash mumkin. Masalan:



Monokarbon kislotalar galogenalkanlarni va nitrillarni gidroliz qilib olinadi:



Metallorganik birikmalardan olish mumkin:




Spirit va aldegidlarni havo kislorodi bilan katalizatorlar (So, Mn tuzlari) ishtirokida oksidlash:



Monokarbon kislotalarni malon efiri yordamida ham sintez qilish mumkin.



Karbon kislotalar rangsiz suyuq va kristall moddalar. Ularning qaynash haroratlari spirtlarnikidan yuqori. Buning sababi, kislotalar vodorod bog'ining hisobiga dimer hosil qiladi:



Karbon kislotalar ishqorning suvli eritmasi bilan reaksiyaga kirishib tuz hosil qiladi:



Karbon kislotalar SOCl_2 , PCl_3 yoki PCl_5 bilan reaksiyaga kirishib xlorangidridlarni hosil qiladi:




Bu reaksiyada eng qulayi tionilxlorid bo‘lib, reaksiya mahsuloti toza chiqadi, sababi SO_2 gaz holida uchib ketadi.


Karbon kislotalardan murakkab efirlar olishda uning OH-guruhi hisobiga reaksiya boradi. Murakkab efir olish reaksiyasini eterifikatsiya reaksiyasi deyiladi:



Eterifikatsiya reaksiyasida spirlarning va kislotalarning reaksiya qobiliyati quyidagi tartibda pasayadi:



Kislota amidlari kislotalarning ammoniyli tuzlarini qizdirish orqali olinadi:



Ikki asosli kislotalarning turlari. Nomlanishi va olinishi. Ikki asosli kislotalarning kimyoviy xossalari. Ishlatilishi.

Tarkibida ikkita karboksil guruhi bo‘lgan kislotalarga ikki asosli kislotalar deb aytildi.

Ikki asosli kislotalar uglevodorodning tuzilishiga ko‘ra to‘yo‘ngan, to‘yinmagan, halqali bo‘lishi mumkin.


To‘yingan ikki asosli kislotalar tarixiy va sistematik nomenklaturalar bo‘yicha nomlanadi. Masalan:

HOOC-COOH oksalat kislota, etandikislota,

$\text{HOOC-CH}_2\text{-COOH}$ malon kislota, propandikislota,

$\text{HOOC-CH}_2\text{-CH}_2\text{-COOH}$ qahrabo kislota, butandikislota va hokazo.


Ikki asosli kislotalarning birinchi vakili bo‘lgan oksalat kislota sanoatda chumoli kislotaning natriyli tuzini qizdirib olinadi:




Etilenglikolni oksidlanganda ham oksalat kislota hosil bo‘ladi:



Oksalat kislotani disiandan (Veler, 1824 y) gidroliz qilib ham olinadi:



Gidroksikislotalar oksidlanganda ham ikki asosli kislota hosil bo‘ladi:




Dikarbon kislotalar oq kristall moddalar bo‘lib, suvda yaxshi eriydi.

Kimyoviy xossalari. Dikarbon kislotalar monokarbon kislotalarning barcha xossalari namoyon qiladi. Ularning tuzlarini, xlorangidridlarini, murakkab efirlarini, amidlarini va angidridlarini olish mumkin.


Shuningdek, α -holatiga galogenlash reaksiyalarini olib borish mumkin. Dikarbon kislotalarning bitta yoki ikkala karboksil guruhlari bo‘yicha hosilalarini olish mumkin.

Ikki asosli kislotalar dissotsiyalanganda birinchi bosqichi oson va ikkinchi bosqichi qiyin boradi. Buning sababi protonning ikkita manfiy zaryadlangan aniondan uzoqlashishi uchun energiyaning ko‘p talab qilinishidir.

Ikki asosli kislotalardan oksalat va malon kislota qizdirilsa CO_2 ajralib, bir asosli kislota hosil bo‘ladi:



Qahrabo kislota $230-240^{\circ}\text{C}$ atrofida qizdirilsa qahrabo angidridi hosil bo‘ladi:



Malon kislotasida α -holatda vodorod ikkita karboksil guruhi ta'sirida bo'lganligi uchun faollashadi. Uning bu xossasidan turli kislotalarni va ularning hosilalarini sintez qilishda foydalaniladi. Ayniqsa, turli sintezlarni amalga oshirishda malon efiridan foydalaniladi.

Nazorat savollari:

1. $\text{C}_5\text{H}_8\text{O}_4$ tarkibli ikki asosli kislotaning izomerlarini yozing va xalqaro nomenklatura bo'yicha nomlang.
2. Nima uchun ikki asosli kislotalar bir asosli kislotalarga nisbatan kuchli hisoblanadi?
3. Malon kislotasi qizdirilsa qanday modda hosil bo'ladi?
4. Malon va qahrabo kislotalarni bir-biridan qaysi reaksiya orqali farqlash mumkin?
5. 3-Xlorbutan kislota natriy gidroksidning spirtli eritmasi bilan qizdirilsa qaysi to'yinmagan kislota hosil bo'ladi?
6. Oksalat kislotaning olinish usullarini yozing.

Misol va masalalar.

1-varint

1. $\text{C}_5\text{H}_{10}\text{O}_2$ tarkibli kislotaning izomerlarini yozing. Ularni ratsional va xalqaro nomenklatura bo'yicha nomlang.
2. Quyidagi kislotalarni xalqaro nomenklatura bo'yicha nomlang.

- 1) $\text{CH}_3(\text{CH}_2)_3\text{-COOH}$
- 2) $(\text{CH}_3)_3\text{CCH}_2\text{CH}_2\text{-COOH}$
- 3) $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{C}(\text{CH}_3)_2\text{-COOH}$
- 4) $(\text{CH}_3)_3\text{C-COOH}$

3. Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshiring:



2-varint

1. Quyidagi kislotalarni kislotalik kuchi oshishi tartibida joylashtiring:

- | | |
|---|--|
| a) $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_2\text{COOH}$ | b) $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}(\text{CH}_3)\text{COOH}$ |
| c) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}_2\text{COOH}$ | |
| d) $\text{CH}_3\text{CH}(\text{CH}_3)\text{CH}(\text{CH}_3)\text{COOH}$ | |


2. Propion kislotaning 1 mol xlor bilan reaksiya tenglamasini yozing. α -holatdagi vodorodning nima uchun faol bo‘lishini tushuntiring.
3. Reaksiya natijasida butan kislota hosil bo‘lsa, reaksiya uchun qaysi magniyorganik birikma olinganini va reaksiya tenglamasini yozing.

Karbon kislotalar Izomeriyasi. Nomenklaturasi.

3-varint

1. a) Propion; b) moy; v) izomoy; g) trimetilsirka; d) valerian; v) palmetin; j) stearin kislotalarning struktura formulasini yozing. IUPAK nomenklurasiga muvofiq nomlang.

2. Quyidagi karbon kislotalarni nomlang:




3. $C_5H_{10}O$ tarkibli karbon kislotalarning barcha izomerlarini yozing va nomlang.

4-varint


1. Kislota qoldig’i (asil) deb nimaga aytiladi? Chumoli, sirka va propion kislota asillarini yozing va nomlang.

2. Karbon kislota funksional hosilalari deb nimalarga aytiladi?

Quyidagi birikmalarni nomlang:



3. Quyidagi birikmalarni nomlang.



5-varint

1. Akril, kroton, olein va propargil kislotalarning struktura formulalarini yozing va IUPAK nomenklaturasi bo'yicha nomlang.










2. $C_4H_6O_2$ tarkibli kislotalarning struktura formulalarini yozing va nomlang. Ulardan qaysi biri geometrik izomerga ega bo'ladi?

3. Shovul, malon, metilmalon, adipin kislotalarning struktura formulalarini yozing.

6-varint

1. Qaxrabo kislota angidridi, adipin kislota amidi, qaxrabo kislota kaliyli tuzlarning struktura formulalrini yozing.

2. Quyidagi birikmalarni nomlang.



3. Quyidagi kislotalarning struktura formulalarini yozing: a) benzoy; b) o-, m-, p-toluollar, v) ftal; g) fenil sirka.

7-variant

1. Quyidagi funksional guruh almashgan kislotalarning formulalarini yozing: a) salisil, b) antropil; v) nitrobenzoy kislotalar izomerlarini; g) p-metoksibenzoy; d) gall.

2. $C_8H_8O_2$ tarkibli aromatik kislotalarning barcha izomerlarini yozing va nomlang.

3. a) spirt; b) aldegid; v) etilen uglevodorodi; g) ketonlarni oksidlاب propion kislota hosil qiling. Reaksiya sxemalarini yozing.



Olinishi

8-variant

1. Oksosintez yordamida moy kislota hosil qiling.


2. Grinyar reaksiyasi bo'yicha propion va izomoy kislota hosil qiling.

3. Quyidagi o'zgarishlar natijasida qanday birikma hosil bo'ladi:




9-variant

1. Propil bromiddan foydalanib, 2 xil usulda moy kislota hosil qiling.
2. Etilenden propion kislota olish reaksiya sxemasini yozing.
3. Quyidagi o‘zgarishlarni to‘ldiring.



Mustaqil ishslash uchun misol va masalalar

1. Barbe-Viland usulidan foydalanib valerian kislotadan moy kislota hosil qiling.
2. 4-metil-2-pantanondan: a) izovalerian kislota; b) izomoy kislota hosil qilish mumkinmi?
3. Quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshiring:



4. Asetilenden propargil kislota hosil qiling.
5. Quyidagi birikmalarni hosil qilish reaksiya sxemalarini taklif qiling.



7. Quyidagi birikmalarni tegishli kislotalardan olish reaksiya sxemalarini yozing.






8. Malon kislota dietil efiri kaliyli tuzidan qahrabo kislota dietil efirini hosil qiling.

9. Benzoy kislota olish reaksiya sxemalarini yozing. Ulardan aromatik kislotalar olish uchun umumiy bo‘lganlarini ajrating.

10. Toluolni kaliypermanganatning suvli eritmasi bilan oksidlash reaksiyasini yozing.

11. Quyidagi birikmalarni oksidlashdan qanday karbon kislotalar hosil bo‘ladi?



12. a) Astofenonni; b) n-metilasetofenonni natriy gipoxlorid bilan oksidlanish reaksiya sxemasini yozing.

13. Ftal kislotani sanoatda qanday usullar bilan olinadi? Reaksiya sxemasini yozing.

14. Metilakrilketonlarning natriy gipobromid yordamida oksidlanishi orqali quyidagi kislotalarni hosil qiling: a) n-metoksibenzoy; b) n-brombenzoy; v) m-toluil.

15. m- va n-ksilollar asosida 2,4- va 2,5-dimetilbenzoy kislota hosil qiling.


16. a) 1,2,4,5-Tetrametilbenzol; b) 1,2,4-trimetilbenzol (psevdokumol)
v) m-ksilol (xlormetillash reaksiyasi yordamida) asosida 1,2,4,5-benzoltetrakarbon kislota hosil qiling.

17. Toluoldan benzoy kislotani mumkin bo‘lgan yo‘llar bilan hosil qiling.

18. Tegishli nitrillarni gidrolizlash orqali o-toluil, fenilsirka kislotalar hosil qiling. Bu kislota nitrillarini olish usullarini taklif qiling.

19. a) n-Toluolsulfokislotadan; b) n-toluidindan n-toluol kislota sintez qiling.

20. Quyidagi o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘ladigan oraliq va ohirgi mahsulotlarning struktura formulalarini yozing va nomlang:





21. Kanissaro reaksiyasi orqali: a) benzoy kislota; b) 2-yod-3-oksibenzoy kislota oling.

22. Grinyar reaksiyasi yordamida: a) benzoy; b) n-toluil; v) fenilsirka kislota sintez qilish reaksiya sxemalarini yozing.

23. Naftalin va toluollardan benzoy kislota hosil qilishning sanoat usullarini taklif qiling.

24. Perkin reaksiyasi orqali dolchin kislota hosil qiling. Reaksiya mexanizmini yozing va aldol kondensatlanish mexanizmi bilan taqqoslang.

25. Quyidagi birikmalarining ta'sirlashuvidan hosil bo'ladigan mahsulotlarning struktura formulalarini yozing.



26. Benzaldegid sirka angidridlaridan, jarayonning ma'lum bir bosqichida Perkin reaksiyasidan foydalanib, δ -fenilvalerian kislota olish sxemasini taklif qiling.

27. Quyidagi kislotalarni Kolbe-SHmid usulida hosil qilish uchun qaysi fenollardan foydalanish kerak?

28. a) 2,4-Dioksibenzoy kislota; b) 2,5-dioksitereftal kislota; v) n-aminosalisil kislota olish reaksiya sxemalarini yozing.

29. Toluoldan barcha mononitrobenzoy kislota izomerlarini hosil qiling.

30. Toluolni quyidagi birikmalarga aylantirish reaksiya sxemalarini yozzing: a) n-aminobenzoy kislota; b) m-aminobenzoy kislota: v) β -(n-bromfenil)-propion kislota.

Tuzilishi va xossalari

31. Spirtlardagi va karbon kislotalardagi vodorod bog'larning mustahkamligini solishtiring. Ulardagi farqni qanday tushuntirish mumkin?

32. Karboksil guruhi tuzilishini zamonaviy tasavvurlar orqali tushuntiring. a) Nukleofil birikishi reaksiyalariga carboksil guruhining kam kirishish sababini; b) karbon kislotalarning kislotalik xossalalarini tushuntiring.


2-mashg'ulot. To'yinmagan kislotalar. Tarkibida qo'sh bog' va uch bog' tutgan karbon kislotalar to'yinmagan kislotalarga kiradi. To'yinmagan kislotalar ratsional va xalqaro nomenklaturalar asosida nomlanadi: N-N:

$CH_2=CH-COOH$ propen kislota, akril kislota.


$CH_3-CH=CH-COOH$ buten-2 kislota, kroton yoki 2-metilakril kislota

$CH_2=C(CH_3)-COOH$ 2-metilpropen kislota, metakril kislota yoki 2-metilakril kislota. Ularni quyidagi usullar bilan olinadi:

To'yinmagan spirt va aldegidlar yumshoq sharoitda oksidlansa, to'yinmagan monokarbon kislotalar hosil bo'лади:



Glogenkarbon, hidroksikarbon kislotalardan H_2O va HX ajratib, to‘yinmagan kislotalar olinadi:




Alkinlar CO bilan suvli muhitda nikel tetrakarbonil ishtirokida reaksiyaga kirishadi va α,β -to‘yinmagan monokarbon kislotalarni (V.Reppe) hosil qiladi:



Kimyoviy xossalari. Uch bog’ tutgan to‘yinmagan karbon kislotalar to‘yingan kislotalarga nisbatan kuchli kislota hisoblanadi.

To‘yinmagan monokarbon kislotalar kislotalarning barcha funksional hosilalarini: tuzlarini, galoidengidridlarini, angidridlarini, murakkab efirlarini beradi.

To‘yinmagan monokarbon kislotalar to‘yinmagan bog’ning xarakteriga ko‘ra alkenlarga va alkinlarga xos bo‘lgan birikish va polimerlanish reaksiyalariga kirishadi:



Ayniqsa, α,β -to‘yinmagan monokarbon kislotalar oson polimerlanadi, chunki karboksil guruh qo‘sh bog’ning reaksiyaga kirishish qobiliyatini oshiradi.

Akril, metakril kislotalar oson polimerlanadi va ulardan sanoatda polimer materiallar olinadi. Ayniqsa, akril kislotaning murakkab efiri, amidi va nitril birikmalar muhim ahamiyatga ega.

Olein kislotasi bo‘yoq sanoatida asosiy xom ashyolardan biri hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1--variant

1.C₄H₆O₂ tarkibli to‘yinmagan kislotaning izomerlarini yozing va xalqaro nomenklatura bo‘yicha nomlang.

2.Molekulasida uch bog’ tutgan C₃H₆O₂ tarkibli kislotaning izomerlari nechta?

3.Akril kislotaning a) vodorod bromid; b) fosfor(V)-xlorid bilan reaksiyalarini yozing.

4.Propen kislotasi KMnO₄ ning suvli eritmasi bilan oksidlansa qanday modda hosil bo‘ladi?

5. Akril va metakril kislota olishning sanoat usullarini yozing. Ular sanoatning qaysi sohalarida ishlatiladi.

2-variant

1. Akril kislotani Na₂CO₃, Br₂, HBr bilan reaksiyasini yozing.

2. Yog'larni gidrolizidan qanday yog' kislotalari hosil bo‘ladi?

3. Qahrobo kislotadan adipin kislota hosil qiling. Reaksiya sxemasini yozing.

4 Nima uchun quyidagi dikarbon kislotalar monokarbon kislotalarga (molekuladagi uglerod atomlari soni teng bo‘lgan) nisbatan kuchli kislota xossasini nomoyon qiladi?


5. Nima uchun shovul va yoki chumoli kislotalarni eterifikasiya qilishda ortiqcha miqdordagi meniral kislota (katalizator sifatida) talab etilmaydi?

3-variant

1. Shovul, malon, qahrabo, glutar va adinin kislotalar qizdirilishidan qanday birikmalar hosil bo‘ladi? Reaksiya sxemasini yozing.

2. Sirka kislotadan malon kislota hosil qiling.

3. O‘zgarishlardagi oraliq moddalarni aniqlang va oxirgi mahsulotni nomlang:




4. Malon efiridan moy kislata hosil qiling.

5. Malon efiridan dimetilsirka kislota hosil qiling.

4-variant

1. Quyidagi o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘ladigan $C_8H_{14}O_4$ tarkibli birikmaning struktura formulasini aniqlang.



2. Malon efiridan kraton kislota hosil qiling.

3. Adipin kislota sanoatda qaysi usul bilan olinadi va nima uchun ishlatiladi?

4. Quyidagi xossalarni takrorlaydigan birikmalarning struktura formulalarini yozing: a) Kumush ko‘zgu reaksiyasiga kirishadigan karbon kislota; b) Eterifikasiya jarayoniga katalizatorsiz kirisha oladigan, v) $Ba(OH)_2$ bilan qizdirilishidan siklik keton hosil qiladigan dikarbon kislota; g) qizdirilishidan ichki angidrid hosil qiladigan to‘yinmagan dikarbon kislotalarni.

5. a) Propion kislota, b) fenol; v) p- nitrobenzol kislotalarning qaysilari benzoy kislotaga nisbatan kuchli kislota hisoblanadi.

5-variant

1. «Orto-effekt» deb nimaga aytildi? Nima uchun orto- almashgan benzoy kislota (o‘rinbosarning harakteridan qat’iy nazar) benzoy kislotaga nisbatan kuchli kislota hisoblanadi.

2. Quyidagi a) o- nitrobenzoy; b) salisil; v) antranil kislotalardan orto- o‘rinbosarlar birikmaning kislotalik xossasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

3. Quyidagi benzoy kislota hosilalarini olish sxemalarini yozing: a) benzol xlorid; b) benzoangidridi; v) benzamid; g) N-fenilamid; d) benzilbenzoat; e) benzonitril.

3. Quyidagi kislotalarning qaysilari a) eterifikasiya reaksiyasiga oson kirishadi; b) murakkab efirlarni qiyin hosil qiladi.


4. Nima uchun 2,6-diftorbenzoy kislota metil spirti bilan juda qiyin, uning kumush tuzini metil yodid bilan metillashdan oson murakkab efir hosil bo‘ladi?

5. Nima uchun mezitilen karbon kislota qiyin, mezitilen sirka kislota oson eterifikasiyalanadi?

6-variant

1. Pereeterifikasiya usuli bilan: a) etilbenzoatdan-benzilbenzoat; b) metilsalisilatdan - benzilsalisilat hosil qiling.

2. Quyidagi o‘zgarishlarni qaysi reagentlardan foydalanib amalga oshirish mumkin?



3. Aromatik halqaga quyidagi guruhlarni qaysi usullar bilan kiritish mumkin: $-CI$; $-OH$; $-NO_2$; $-NH_2$; $-COCH_3$; $-CHO$; $-COOH$?

4. Quyidagi guruhlarni aromatik halqadan qanday tortib olish mumkin: $-CI$; $-OH_3$; $-NO_2$; $-NH_2$; $-COCH_3$; $-CNNO$; $-COOH$?

5. Akril kislota olishning sanoat usullarini yozing. Ular sanoatning qaysi sohalarida ishlatiladi.

7-variant.

1. Quyidagi birikmalarini kislotalik xossalari solishtiring: a) etil spirti, chumoli va moy kislotalar; b) moy, α -nitril moy va v) δ -nitril moy kislotalar. Ulardagi farqlarga tushuncha bering.

2. Quyidagi birikmalarini kislotalik xossasi ortib borish tartibida joylashtiring; a) $C_2H_3NO_2$; b) CH_3CH_2COOH ; v) $CH_3CH_2CH_2OH$. Kimyoviy reaksiyalar yordamida javobingizni izohlang.

3. Organik birikmalardagi karboksil guruhini qanday sifat reaksiyalari orqali aniqlash mumkin?

4. Quyidagi kislotalarni dekorboksillash natijasida qanday mahsulotlar hosil bo‘ladi; a) nitrosirka; b) siansirka; v) trixlorsirka.

5. Bu kislotalardan uglerod-(IV)-oksidining oson ajralish sabablarini tushuntiring.

8-variant

1. Dekarboksillanishidan metilbutan izomerlari hosil qiladigan $C_6H_{12}O_2$ tarkibli kislotalarning struktura formulalarini yozing va nomlang.

2. Propion va izomoy kislotalarni natriyli tuzlari elektrolizidan qaysi birikmalar hosil bo‘ladi. Katodda va anodda boradigan jarayonlarni tahlil qiling.

3. Moy kislota kalsiyli tuzini quruq haydash orqali qanday birikma hosil bo‘ladi? Bu sharoitda chumoli va propion kislota kalsiyli tuzidan qanday birikma olinadi?

4. Valerian kislotadan foydalanib: a) dibutilketon; b) oktan va v) butan hosil qiling.

5. Sirka kislota yordamida; a) etilasetat; b) asetil xlorid; v) sirka angidrid; g) asetamid olish reaksiya sxemasini yozing.

9-variant

1. Moy kislotani: a) Cl_2 bilan yorug’likda; b) $LiAlH_4$ so‘ng suv bilan reaksiyalarini yozing.

2. Quyidagi izomer kislotalarni qanday reaksiyalar yordamida farqlash mumkin: $CH_3CH_2CH(CH_3)COOH$ va $(CH_3)_3C-COOH$

3. Chumoli kislota sanoatda qanday usul orqali olinadi. Uning boshqa kislotalardan farqlovchi reaksiya sxemalarini yozing.

4. Sirka kislotani olishning sanoat usuli reaksiya sxemasini yozing. Ishlatilish sohalari haqida ma'lumot bering.

5. Butilaminni a) CH_3COCl ; b) CH_3CH_2Cl bilan reaksiyasini yozing.

10-variant

1. Asetilxloridni etilmagniy bromid bilan reaksiyasini yozing. Nima uchun galogenangidridlarning reaksiyaga kirishuvchanlik qobiliyati (Grinyar reaktivi bilan) quyidagi qator bo'yicha susayib boradi? $R-COF > R-COCl > RCOBr$.

2. Qanday kimyoviy usullar bilan bromsirka kislotani bromangidriddan farqlash mumkin?

3. Propion kislotadan; natriy propionatdan propion kislota angidridini hosil qiling.

4. Asetilen va noorganik reagentlardan foydalanib sirka propionangidrid hosil qiling.

11-variant

1. Sirka angidridini olishning sanoat usulini yozing va u qaerlarda ishlatiladi.

2. Propion kislotani metil spirti bilan eterifikasiya reaksiyasini yozing.

3. Quyidagi omillarni izohlang: a) ko'pchilik karbon kislotalarni eterifikasiya reaksiyalari kuchli mineral kislotalarsiz bormaydi; b) yuqori konsentrasiyali mineral kislotalar eterifikaya jarayoni tezligini keskin kamayishiga olib keladi.

4. Quyidagi kislotalarni metil spirti bilan ta'sirlashuv tezligini ortib borish tartibida joylashtiring: a) sirka; b) trimetilsirka; v) propion. Javobingizni izohlang.

14-AMALIY MASHG'ULOT. Nitrobirikmalar. Tuzilishi, olinish usullari va xossalari.


Yog' qator nitrobirikmalari. Tuzilishi, gomologik qatori, nomlanishi, olinishi va xossalari. Aromatik nitrobirikmalar. Tuzilishi, olinishi va xossalari. Nitrobirikmalar mavzusiga oid masalalar echish.

Darsning maqsadi: Talabalarga mavzu haqida to'liq ma'lumot berish. DTS talablari asosida talabalarga bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Nitrobirikmalar-uglevodorodlar tarkibidagi vodorod atomining nitroguruh- NO_2 ga almashishi natijasida hosil bo'ladigan moddalardir. Ularning tuzilish formulasida azot bevosita uglerod atomi bilan bog'langandir: Masalan, nitrometan:



Ulardagi ikkita kislorod atomi mezomero'ya tufayli bir xildir:




Nitrobirikmalarda azot to'rt valentli bo'lib, azotning bitta kislorod atomi bilan hosil qilgan bog'i-yarim qutbli kovalent bog'dir. Nitrobirikmalar nitrit kislota efirlariga izomer moddalardir. Masalan:



Metil guruhining o'rnida etil, propil, izopropil, uchlamchi-butil va h.k guruhlar bo'lganda mos ravishda nitroetan, 1-nitropropan, 2-nitropropan va 2-metil-2-nitropropanlar hosil bo'ladi. Bu nitrobirikmalar birlamchi, ikilamchi va uchlamchi nitrobirikmalarga misol bo'ladi.

Nitrobirikmalarni nomlashda tegishli uglevodorod nomining oldiga - *nitro* qo'shimchasi qo'shib aytiladi. Agar zanjirda nitroguruhdan katta funksional guruhlar (-OH, -NH₂, -SO₃H, -CHO, -COOH) bo'lmasa uglerod atomlarini nomerlash nitroguruh yaqin tomondan amalga oshiriladi. Yon zanjirdagi galoid atomlari, alkil guruhlar, nitroguruh alfavit tartibida yoziladi. Bunda alfavit tartibida birinchi keluvchi guruh turgan uglerod atomiga qo'shimcha nomer beriladi. Masalan:




Nitrobirikmalar asosan ikkita usul bilan olinadi:

1. *Konovalov* usuli: To‘yingan uglevodorodlarga yuqori haroratda (150^0) suyultirilgan (10%) nitrat kislota ta’sir ettirish usuli;



Bu reaksiyada uchlamchi uglerod atomidagi vodorodlar eng oson, birlamchi uglerod atomidagi vodorodlar esa eng qiyin almashinadi. Reaksiya radikal mexanizmida boradi.


Konovalov reaksiyasining mexanizmini A.V. Topchiev va A.N. Titovlar o‘rganib quyidagi sxemani taklif qilganlar:




Qo‘sishma mahsulot sifatida karbon kislotalari hosil bo‘ladi.

Alkanlar nitrat kislotosi yoki azot oksidlari yordamida $420-480^0\text{C}$ da nitrolanganda nitrobirikmalar aralashmasi hosil bo‘ladi (X. Gess, 1930 y). Reaksiya juda qisqa muddatda olib boriladi. Uning sxemasi va mexanizmini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:


Umumiylar reaksiya sxemasi:



Reaksiya mexanizmi:



2.Galoidalkillarga nitrit kislota tuzlarining ta'siri:





Bu reaksiyada alkilnitritlar ham hosil bo'ladi: $R-O-N=O$

Ular ko'proq uchlamchi galoidalkillar reaksiyasida hosil bo'ladi.

Bu reaksiyaning mexanizmi nukleofill almashinishdir




Mexanizmi:




Bu reaksiyada nukleofill Kornblyum qoidasiga muvofiq elektron zichligi yuqori bo'lgan kislorod atomi bilan reaksiyaga kirishadi.


Birlamchi galoidbirikmalar S_N2 mexanizmi bo'yicha reaksiyaga kirishib, nitroalkanlar hosil qiladi. Bunda nukleofill qutblanuvchanligi katta bo'lgan azot atomi bilan reaksiyaga kirishadi:



Nitrobirikmalar sariq rangli, zaharli suyuq yoki qattiq moddalardir. Birlamchi va ikilamchi nitrobirikmalar nitroguruhning kuchli elektronoaktseptorlik xossasi tufayli tautomer kislota formasiga o'tib turadi;



Shuning uchun ular ishqor eritmasida eriydi;




Vodorod bilan qaytarib aminobirikmalar- RNH_2 , nitrit kislotasi ta'sirida nitrozonitrobirikmalar olinadi:



Sulfat kislota ta'sirida karbon kislotalar, al'degid yoki ketonlar hosil qiladi. Bunda birlamchi va ikilamchi nitrobirikmalar kislotalarning suvli

eritmasida al'degid yoki ketonlar, kontsentrlangan sulfat kislota ta'sirida esa birlamchi nitrobirkimlar karbon kislotasini hosil qiladi:






(Nef reaksiyasi 1894 yil)




Oxirgi reaksiyada karbon kislotadan tashqari gidroksilamin ham hosil bo'ladi va bu reaksiya gidroksilamin olishning sanoat usuli hisoblanadi. Bu reaksiyada birlamchi nitrobirkma o'miga ikilamchi nitrobirkma olinsa ketonlarning oksimi hosil bo'ladi.


Nitrobirkimlar α -uglerod atomidagi vodorodlar hisobiga galogenlar bilan galogenlash, nitrit kislotasi bilan nitrozillash, aldegid va ketonlar bilan kondensatsiya reaksiyalariga kirishadi.



Nitrobirkimlar ishqoriy muhitda alkilglogenidlar bilan alkillash reaksiyasiga kirishadi. Bunda ham α -uglerod atomida almashinish ketadi. Reaksiya ikki yo'nalishda ketishi mumkin:



Nitrobirkimlar qutbli moddalar bo'lgani uchun ular suyuq yoki qattiq holda bo'ladi. Ular sariq rangli zaharli moddalardir. Molekulyar massasi ortib borishi bilan ularning qaynash harorati ortib boradi. Masalan, nitrometan, nitroetan va 1-nitropropan qatorida ularning qaynash haroratlari mos ravishda $101,2^{\circ}\text{C}$, $114,1^{\circ}\text{C}$ va $131,2^{\circ}\text{C}$ larni tashkil etadi. Nitrometanning kislotali xossasi fenolga yaqin. Dinitrometan va ayniqsa, trinitrometan (nitroform) kuchli kislotadir. Uchta nitroguruh ta'siri ostida vodorod juda kuchli protonlashadi:




Nitrometan polimer moddalarning erituvchisi va raketa yoqilg'isi sifatida ishlataladi. Nitrotsiklogeksan-kaprolaktam olishda ishlataladi. Trixlornitrometan (xlorpikrin) qo'shloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurashda va dezinfeksiyalovchi vosita sifatida ishlataladi.

Nitrobirikmalar portlovchi va zaharli moddalar olishda ishlataladi.


Benzol qatori nitrobirikmalari. Aromatik uglevodorodlarni nitrolash uchun nitrat va sul'fat kislotalarning 1:2 nisbatdagi aralashmasidan foydalaniladi (nitrolovchi aralashma):




Hosil bo'lgan nitroniy kationi aromatik birikmaga hujum qiladi:



Agar toluolga yuqori haroratda ($100-150^{\circ}\text{S}$) suyultirilgan nitrat kislota ta'sir qilinsa, yon zanjirga nitrolash ketadi:



Agar benzolning yon zanjirida uzun radikal bo'lsa, uning α -holati nitrolanadi:



Nazorat savollari:

1. Nitrobirikmalar bilan alkilnitritlarning tuzilishidagi farq nimadan iborat.
2. Nitrometanda azotning valentligi va oksidlanish darajasi nimaga teng.
3. To'yingan uglevodorodlarni Konovalov reaksiyasi bo'yicha nitrolanganda qanday qonuniyat kuzatiladi.
4. To'yingan uglevodorodlarni gomolitik nitrolashda qanday qo'shimcha mahsulotlar hosil bo'ladi.
5. Galoidalkillarga nitrit kislotasining tuzlari ta'sir ettirilganda qanday birikmalar hosil bo'ladi.
6. Nega nitrobirikmalar kislotali xossa namoyon qiladi.
7. Hamma nitrobirikmalar ham ishqor eritmasida eriydimi. Javobingizni izohlang.

8. Nitroguruh nitroalkan molekulasidagi qaysi vodorodni faollashtiradi.

Misol va masalalar.

Nitrobirkmalar Izomeriyasi. Nomenklaturasi.

1-variant

1. Quyidagi birikmalarni struktura formulalarini yozing: a) nitroetan; b) 2-nitro-3-metilbutan; v) 2-nitro-4,4-dimetilpentan; g) 4-nitro-2-penten. Birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi nitrobirkmalarini ko'rsating.

2. $C_4H_9NO_2$ tarkibli nitrobirkmalarning barcha izomerlarini yozing va nomlang.


3. Azot kislotasi amil efiriga izomer bo'lgan barcha nitrobirkmalarni struktura formulalarini yozing va IYUPAK nomenklurasiga ko'ra nomlang.

2-variant

1. a) o-Nitrotoluol; b) n-nitroetilbenzol; v) simm-trinitrobenzol; g) metilfenilnitrometan; d) 2,4,6-trinitrofenollarning struktura formulalarini yozing.

2. $C_7H_7NO_2$ tarkibli aromatik qator nitrobirkmalarning izomerlarini yozing va nomlang.

3. Quyidagi birikmalarni nomlang:



Olinish usullari

3-variant

1. Konovalov reaksiyasi bo'yicha izobutanni nitrolang. Reaksiya mexanizmini tahlil qiling.

2. Propanni bug' fazada nitrolanishidan qanday birikmalar hosil bo'ladi?

3. 1-Brombutanni kumush nitrit (efirda) bilan ta'sirlashuvidan qanday birikma hosil bo'ladi? Reaksiya sxemasini, mexanizmini yozing. Qaysi mahsulot ko'proq hosil bo'ladi va nima uchun?


4-variant

1. Nima uchun 1-yodpropan efirdagi kumush nitrit bilan aksariyat tegishli nitrobirkma, 2-yodpropan esa ushbu sharoitda azot kislotasi izopropil efiri hosil qilib ta'sirlashadi?

2. Dimetilformamid muhitida propil bromidni natriy nitrit bilan reaksiyasini yozing. Reaksiya mexanizmini kuzating. Erituvchining



ahamiyati qanday? Bu usul yordamida uchlamchi nitrobirikma olish mumkinmi?

3. 2-yodpropandan 2-nitropropanni hosil qilishning quyidagi variantlarini tahlil qiling. Qaysi hollarda nitrobirikma hosil bo‘lish unumi yuqori va nima uchun?



5-variant

1. Quyidagi o‘zgarishlar natijasini tushuntiring.




2. Nitrolovchi aralashma yordamida benzolni nitrolash reaksiyasini yozing. Sulfat kislotaning jarayondagi ahamiyati nimada?

3. Nima uchun nitrobenzolni nitrolovchi aralashmadagi N_2SO_4 ning konsentrasiyasi 80% dan 90% ga oshirilganda reaksiya tezligi 1000 marta ortadi.

6-variant

1. Aromatik halqaga nitroguruhini kiritish uchun qanday nitrolovchi aralashmalardan foydalaniladi. Ulardan qaysi biridan quyidagi nitrobirkalmalarni olish uchun foydalanish maqsadga muvofiq.



2. a) Etilbenzol; b) izopropilbenzol; v) benzoy kislota; g) n-nitrobrombenzollarni mononitrolash sxemalarini yozing. Ulardan qaysi biri eng oson nitrolanadi?

3. Nitroguruhning tuzilishini tahlil qiling. Semipolyar bog’ deb qanday bog’ga aytiladi? Nitroguruhdagi ikkita azot-kislorod bog’ning bir xil ekanligini qanday fizik usullar orqali isbotlash mumkin?



Tuzilishi. Xossalari

7-variant

1. Nitrometan molekulasi atom-orbitalining modelini tasvirlang. Bu birikmadagi $C - H$ bog'ni harakterlang.
2. 1-Nitropropan molekulasidagi elektron buluti zichligining taqsimlanganligi nitroguruhga qanday ta'sir ko'rsatadi? Nitroguruhning induksion effektini harakterlang.
3. α -Nitropropandan nitroguruhning induksion effektini harakterlang.

8-variant

1. Nitrobirkmalarning yuqori haroratda qaynashini qanday izohlash mumkin?
2. Tegishli nitrobirkmalardan etilamin, izopropilaminlarni hosil qiling.
3. Quyidagi izomerlarini qanday reaksiyalar orqali farqlash mumkin:



va




9-variant

1. Nitrobirkmalardagi vodorod atomlarini faolligini isbotlovchi reaksiyalarini 2-nitropropan misolida ko'rsating. Bu faollik sababini tushuntiring.
2. Quyidagi birikmalarni ishqorning suvli eritmali bilan ta'sirini solishtiring: a) nitroetan; b) 2-nitropropan; v) 3-nitro-3-metilpentan. Reaksiya mexanizmini tahlil qiling. Qanday anionni mezomer deyiladi?
3. 2-Nitrobutan qanday tautomer shakllarda bo'lishi mumkin. «Tautomeriya» va «mezomeriya» tushunchalarini taqqoslang.

10-variant

1. Quyidagi birikmalarning qaysilari psevdokislota bo'lishi mumkin: a) 2-nitrobutan; b) 2-nitro-2-metilbutan; v) 1-nitropentan. Tegishli reaksiyalar orqali isbotlang.
2. Quyidagi o'zgarishlarni to'ldiring:



3. a) 1-Nitrobutan; b) 2-nitrobutan; v) 2-nitro-2-metilpropanni azot kislota bilan ta'sirlashuvini solishtiring. Nitrobirkmalarning tuzilishini aniqlashda bu jarayonning ahamiyati qanday?

11-variant


1. Nitrobutan izomerlarini qanday reaksiyalar orqali farqlash mumkin?
2. 2-nitrobutanni va nitroetanni ishqor ishtirokida formaldegid bilan reaksiyasini yozing. Reaksiya mahsulotlarini degidratlanishidan qanday birikmalar hosil bo‘ladi? 2-nitro-2-metilpropan aldegidlar bilan ta’sirlasha oladimi?

3. Quyidagi reaksiya mahsulotlarnni nomlang:




12-variant

1. Quyidagi o‘tishlarni amalga oshiring:



2. Quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshiring:



3. Konovalov – Nef reaksiyasi yordamida tegishli nitrobirikmalardan: a) propion aldegid; b) metiletiketon hosil qiling.

13-variant

1. 1-Nitropentandan valerian kislota hosil qiling.
2. Aromatik halqadagi nitroguruhining tuzilishini elektrofil o‘rin olish reaksiya yo‘nalishiga va tezligiga ta’sirini izohlang.
3. Nitrobenzolni anilinga qaytarilish jarayoni kim tomonidan o‘rganilgan? Uning ahamiyati nimada? Nitrobirikmalardan aminlar hosil qilish uchun qanday qaytaruvchilardan foydalaniladi.

14-variant

1. m-Nitrobenzoldan: a) m-fenilendiamin; b) m-nitroanilin olish uchun qanday qaytaruvchilardan foydalanish mumkin? Reaksiya tenglamalarini yozing.
2. Quyidagi birikmalarni asos xossasi ortib borish tartibida joylashtiring: a) anilin; b) n-nitroanilin; v) 2,4,6-trinitroanilin.


3. o-Nitrotoluoldagi nitroguruhi metilguruhining vodorodi faolligiga qanday ta'sir etadi? o-Nitrotoluolni propion aldeгidi bilan reaksiya sxemasini yozing. Bu aldeгid bilan toluol reaksiyaga kirisha oladimi?

15-variant

1. Fenilnitrometan molekulasida metilen guruhi vodorodining faolligi sababini tushuntiring. Fenilnitrometanning tautomer shaklini ta'svirlang. Umumiy mezomer ionining tuzilishi qanday?

2. Qanday birikmalar psevdokislotalar deyiladi? Sof kislotalardan ularning farqi nimada? $C_7H_7NO_2$ tarkibli nitrobirkma izomerlarining qaysi biri psevdokislota hisoblanadi?

3. Quyidagi o'zgarishlarni to'ldiring:



16-variant

1. Nima uchun fenilnitrometan 1-nitro-2-feniletanga nisbatan ishqor bilan oson ta'sirlashadi.

2. Quyidagi birikmalarning qaysilari ishqorning suvli eritmasi bilan ta'sirlashadi: a) nitroetan; b) 2-nitro-2-metil butan; v) nitrosiklogeksan; g) nitrobenzol; d) 1-nitro-1-feniletan. Reaksiya sxemalarini yozing.

3. Fenilnitrometanni qanday reaksiyalar orqali o-nitrotoluoldan farqlash mumkin. Bu birikmalarni ajratishni kimyoviy usullarini taklif qiling.

17-variant

1. Sxemadagi oraliq hamda oxirgi mahsulotlarning stiruktur formulalarini yozing.



2. Toluoldan foydalanib, o-, m- va n-nitrobenzoy kislota hosil qiling.

3. Toluoldan: a) m-aminobenzoy kislota; b) n-aminobenzoy kislota sintez qilish sxemasini tuzing.

18-variant

1. Toluoldan simm-trinitrobenzol hosil qiling.

2. Toluol asosida: a) 3,5-dinitrotoluol; b) 2,6-dinitrotoluol olish sxemasini taklif qiling.



15-AMALIY MASHG'ULOT. Aminobirikmalarning olinishi va xossalari.

1-mashg'ulot. Yog' qator aminobirikmalari Tuzilishi, izomeriyasi. Nomlanishi. Olinish usullari va xossalari. Aromatik aminlar. Tuzilishi, olinishi, xossalari. Ayrim vakillari. Anilin. Aminlar mavzusiga oid masalalar echish.


Darsning maqsadi: Talabalarga mavzu haqida to'liq ma'lumot berish. DTS talablari asosida talabalarga bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Aminobirikmalarning tuzilishi. Aminobirikmalarning va nomlanishi. Aminobirikmalarning olinishi. Goffman, Lossen, va Kursius qayta guruhlanishi.

Aminlar-ammiak tarkibidagi vodorod atomlarini uglevodorod qoldiqlariga almashtirish natijasida hosil bo'ladigan moddalardir. Tuzilishiga ko'ra ular birlamchi RNH_2 , ikilamchi R-NH-R va uchlamchi $\text{R}^1\text{N}(\text{R}^2)\text{R}^3$ bo'lishi mumkin. Formuladagi R^1 , R^2 yoki R^3 lar metil, etil, propil va h.k yoki to'yinmagan uglevodorod qoldig'i-allil- bo'lishi mumkin. $\text{CH}_2=\text{CH-CH}_2\text{-NH}_2$ allilamin. Azot bevosita qo'sh bog' tutgan uglerod atomiga birikkan birlamchi yoki ikilamchi aminobirikmalar beqaror birikmalardir. Ular azometinlarga (iminlarga) izomerlanadilar. Masalan: $\text{CH}_2=\text{CH-NH}_2$ vinilamin. Bu modda erkin holda yo'q, chunki u tezda sirka aldegidning aminiga aylanib ketadi:





Ammo bunday uglevodorod qoldig'i tutgan uchlamchi aminlar barqarordir. Masalan, (dimetilvinilamin):




Chunki, bu molekulada azot atomida kichishi mumkin bo'lgan vodorod yo'q.

Ratsional nomenklaturada aminlar uglevodorod qoldig'i asosida nomlanadi. Masalan: CH_3NH_2 metilamin, $\text{CH}_3\text{NHC}_2\text{H}_5$ metiletilamin, $\text{N}(\text{CH}_3)_3$ trimetilamin va hokazo. Sistematik nomenklaturada uglevodorod nomiga *amino-* so'zini qo'shib nomlanadi, raqam bilan esa aminoguruhnning o'rni ko'rsatiladi:




-NH₂ amino, -NH-CH₃ metilamino va -N(CH₃)₂ dimetilamino guruhlardir.

Agar molekulada turli darajada almashgan azot atomlari bo'lsa, bunday aminlar quyidagicha nomlanadi. Masalan:



2,5,9-aza-2,5,6-trimetildekan

Aminlar quyidagi usullar bilan olinadi: ammiakni galoidalkillar yoki spirtlar bilan alkillash;




Bu reaksiyada birlamchi, ikilamchi va uchlamchi aminlarning arlashmasi hosil bo'ladi, rekatsiyalarning mexanizmi nukleofill almashinish.


2. Nitrillarni, nitrobirikmalarni va oksimlarni qaytarish:




3. Izotsian kislotasi efirlarining gidrolizi:




4. Goffman qayta guruhlanishi yordamida olish:




«Goffman qayta guruhlanishi» deb ataluvchi reaksiyada kislotalaridan xlor yoki bromning ishqoriy eritmasi ta'sirida quyidagi mexanizm bo'yicha izotsian kislotasining efiri hosil bo'ladi:




5. Bekman qayta guruhlanishi bilan olish:




Aminlar yana Lossen va Kurtsius qayta guruhlanishlari bilan olinishi mumkin. Bunda reaksiyaga kislota gidrazidlari va gidroksam kislotalar olinadi. Kislota gidrazidlari qizdirilganda, gidroksam kislotalar esa kislotalar ta'sirida izotsian kislotasining efiriga aylanadi. Bu jihatda Kursius va Lossen qayta guruhlanishi Goffman qayta guruhlanishiga o'xshashdir:



Birlamchi aminlarni olishning yana bir usuli al'degid yoki ketonlarga ammoniy formiat qo'shib qizdirishdan iboratdir. Bu reaksiyada avval almashingan formamid hosil bo'ladi. Formamid esa aminobirikmaga aylanadi. Bu reaksiya Leykart reaksiyasi deb ataladi va quyidagi reaksiya bilan yozish mumkin:




Uchlamchi amin-trimetilamin o'ziga xos usul bilan olinadi. Bunda paraform ammoniy xlorid bilan qizdiriladi. Paraform depolimerlanib chumoli aldegidga aylanadi va ammoniy xlorid bilan reaksiyaga kirishadi:



Bunda trimetilaminning hidroxilordi hosil bo'ladi. Oraliq modda sifatida hosil bo'lgan trimetilolamin tuzi formaldegid bilan qaytariladi. Ikilamchi aminlarning ham o'ziga xos olish usuli mavjud.

Aminlar ammiakka o‘xshash hidli (dastlabki vakillari) va asos xossasiga ega bo‘lgan birikmalardir. Ularni organik asoslar deb ataladi. Ular ammiakka nisbatan kuchli asoslardir. Alkil guruhlarning musbat induktsion ta’siri ularning asosligini oshiradi:



Agar uglevodorod qoldig’i to‘yinmagan (allil) bo‘lsa, bu holda asoslilik kamayadi: $\text{CH}_2=\text{CH}-\text{CH}_2 \leftarrow \text{NH}_2$.




Ularning qaynash haroratlari ham molekulyar massa ortishi bilan ortib boradi. Ba’zi aminobirikmalarning qaynash haroratlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

Ba’zi aminobirikmalarning qaynash haroratlari


Formulasi	Nomi	Qaynash harorati
CH_3NH_2	metilamin	-6,5
$\text{C}_2\text{H}_5\text{NH}_2$	etilamin	16,6
n- $\text{C}_3\text{H}_7\text{NH}_2$	n-propilamin	48,7
n- $\text{C}_4\text{H}_9\text{NH}_2$	n-butilamin	77,8
n- $\text{C}_5\text{H}_{11}\text{NH}_2$	n-amilamin	104,0
n- $\text{C}_6\text{H}_{13}\text{NH}_2$	n-geksilamin	132,7

Diaminlar, aminlarning ishlatalish

Aminlar ammiakka o‘xshagan, asosli xossaga ega bo‘lgan moddalar bo‘lib, ammiakka nisbatan zaharliroqdir. Quyidagi kimyoviy reaksiyalar uning asos ekanini, ammiakka o‘xshashligini ko‘rsatadi;




Aminobirikmalarning ammiakka o‘xshab asosli xossa namoyon qilishi ularning tarkibidagi azot atomida taqsimlanmagan elektron juftning mavjudligidir:

 Bu elektron juft fazoda shunday o‘rin egallaydiki, aminobirikmalar tarkibidagi azot piramida cho‘qqisida joylashadi, uning valent burchaklari $106-108^\circ$ ni, ya’ni

tetraedrik burchakka yaqin burchakni tashkil qiladi. Bundan shunday xulosa chiqadiki, azotning elektron orbitalari xuddi uglerod atomining elektron orbitalariga o‘xshab, sp^3 - gibridlangan holda bo‘ladi. Azot atomi taqsimlanmagan elektron hisobiga to‘rtinchli bog’ hosil qilib,

to‘rt almashgan ammoniy tuzlarini hosil qilganda optik faol enantiomerlar hosil bo‘ladi:




Aminobirikmalarning asoslilikini ifodalash uchun ammoniy ionlarining kislotalilik konstantalaridan $\text{PK}_{\text{VN}}^+ = -\lg \text{K}_{\text{VN}}^+$ foydalaniladi. Ammiakka nisbatan birlamchi aminlar, birlamchi aminlarga nisbatan esa ikilamchi aminlar kuchli asoslardir. Ikilamchi aminlardan uchlamchi aminlarga o‘tganda asoslilik fazoviy sababga ko‘ra biroz kamayadi. Quyidagi jadvalda to‘yo‘ngan aminobirikmalarning asosliliklari keltirilgan.

Ammiak va to‘yo‘ngan aminlarning asosliliklari


Birikma	$\text{PK}_{\text{VN}}^+ (\text{N}_2\text{O})$	Birikma	$\text{PK}_{\text{VN}}^+ (\text{N}_2\text{O})$
NH_3	9,25	$\text{C}_2\text{H}_5\text{NH}_2$	10,5
CH_3NH_2	10,6	$(\text{C}_2\text{H}_5)_2\text{NH}$	11,0
$(\text{CH}_3)_2\text{NH}$	10,7	$(\text{C}_2\text{H}_5)_3\text{N}$	10,8
$(\text{CH}_3)_3\text{N}$	9,8		

Aminobirikmalarning kimyoviy xossalari, asosan azot atomidagi taqsimlanmagan elektron juftning mavjud ekani bilan belgilanadi. Boshqa kimyoviy xossalalar esa $>\text{N}-\text{H}$ va $\rightarrow\text{C}-\text{N}$ bog’larining reaksiyalari bilan bog’liq. Masalan:


Aminlar kislota xlorangidridlari bilan almashingan amidlar hosil qiladi;




Bu reaksiyada metilamin nukleofill reagent vazifasini bajaradi. Reaksiya esa karbonil uglerod atomidagi nukleofill almashinishdir:




Birlamchi aminlarning al'degid yoki ketonlar bilan reaksiyasi ham shunga o'xshash mexanizmda boradi. Reaksiya natijasida aminlar yoki azometinlar hosil bo'ladi:




Ikilamchi aminlar bilan to'yinmagan aminlar (enaminlar) va aminallar hosil bo'ladi:




Birlamchi va ikilamchi aminlar nitroniy tuzlari bilan N-nitroaminlar hosil qiladi:




Birlamchi va ikilamchi aminlar juda kuchsiz NH-kislotalar hisoblanadi. Ular metallorganik birikmalar bilan metallarning alkilamidlarini hosil qiladi:



Aminlarning birlamchi, ikilamchi yoki uchlamchi ekani ularning nitrit kislota bilan reaksiyasida ko'rindi:




Birlamchi aminlar bilan xloroformning ishqorli spirt eritmasidagi reaksiyasida qo'lansa hidli izonitrillar hosil bo'ladi:



Shuning uchun bu reaksiyadan birlamchi aminlarni sifat jihatdan aniqlashda foydalaniladi.

Uchlamchi aminlar vodorod peroksiyi bilan oksidlanganda uchlamchi aminlarning oksidlari hosil bo'ladi:



Diaminlar - tarkibida 2 ta aminoguruh tutgan birikmalardir. Ammo 2 ta aminoguruh turli uglerod atomlarida joylashgan bo‘lgandagina diaminlar qarorli bo‘ladi. 1 ta uglerod atomi 2 ta aminoguruhni tutib turaolmaydi. Diaminlarga misollar;




Ular digalogenalkanlarga ammiak ta’sir ettirib olinadi:




Diaminlar-dinitrillarni yoki dioksimlarni qaytarib olinishi ham mumkin.

Diaminlar birlamchi monoaminlarga o‘xshab kimyoviy reaksiyalarga kirishadi. Bunda ular bitta yoki ikkala aminoguruh hisobiga reaksiyaga kirishishi mumkin:



Ular poliamidlar (neylon) olishda ishlatiladi. Ular oraliq metallarning kationlari bilan barqaror kompleks birikmalar hosil qiladi.

Masalan, etilendiaminin Cu^{2+} kationi bilan bergen kompleksi quyidagicha tuzilishga ega:



Shuninng uchun etilendiamin analitik reagentlar (kompleksonlar) olishda ishlatiladi. Metilamin, dimetilamin, trietilaminlar organik sintezda, dorivor moddalar olishda erituvchi, katalizator sifatida ishlatiladi. Geksametilendiamin poliamid tola (neylon) olishda ishlatiladi.

Nazorat savollari:

1.Aminlarning tuzilishi bilan asosliligi o‘rtasida qanday bog’lanish mavjud.

2.Aminlar tarkibidagi azot atomini elektronlari qanday gibrildanishga ega.

3.Aminobirikmalarning qanday hosilalari enantiomerlar hosil qiladi.

4.Aminlarning asosiy kimyoviy xossalari nimaga bog’liq. Birlamchi, ikilamchi va uchlamchi aminlarni bir-biridan farqlovchi qanday kimyoviy reaksiyalari mavjud.

5. Aminobirikmalarning karbon kislota funksional hosilalari bilan boradigan reaksiyalari qanday mexanizm bilan ketadi.

6. Diaminlarning monoaminlarga o‘xshash va farq qiluvchi hosilalarini ko‘rsating.

7. Aminobirikmalarning ahamiyati va ishlatilish sohalarini ko‘rsating.

Mavzu yuzasidan misol va masalalar

1-variant

1. Quyida nomi keltirilgan aromatik aminlarning tuzilish formulalarini yozing:

- a) anilin b) difenilamin v) N,N-dimetilanilin
g) benzilamin d) n-toluidin e) o-fenilendiamin

2. Umumiy formulasi C₇H₉N bo‘lgan aminlarning izomerlari formulalarini yozing.


3. Quyida keltirilgan reaksiyalar mahsulotlarini yozing va nomlang:

- a) C₆H₅NO₂ + 2Zn + 4NH₄Cl →
b) 4C₆H₅NO₂ + 3CH₃OH + 3NaOH →
v) 2C₆H₅NO₂ + 4Zn + 8NaOH →
g) 2C₆H₅NO₂ + 5Zn + 8NaOH →

2-variant

1. Anilinni nitrobenzoldan qanday reaksiya(lar) yordamida ajratish mumkin.

2. Quyida keltirilgan reaksiyalar mexanizmini yozing:



AMINLAR - izomeriyasi. Nomenklaturasi.

3-variant

1. Quyidagi aminlarni nomlang:

- CH₃CH₂CH₂NH₂ (CH₃)₂CHNH₂ H₂NCH₂CH₂NH₂ (CH₃)₃N
CH₃-NH₂-C₂H₅ (CH₃)₂N-CH₂CH₂CH₃ (CH₃)₃C-NH₂

Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi aminlarni ko‘rsating.

2. a) Ikkilamchi-butilamin; b) di-uchlamchi-butilamin; v) metiletizopropilamin; g) 1,3-pentandiamin; d) dimetilbutil-aminlarning struktura formulalarini yozing.

3. C_3H_9N , $C_4H_{11}N$ tarkibli birikmalarning barcha izomerlarini yozing va nomlang.






4-variant

1. Quyidagi birikmalarni nomlang.



2. C_7H_9N tarkibli aromatik aminlarning izomerlarini yozing va nomlang.

3. Quyidagi aminlarni nomlang:



5-variant

1. a) n-toluidin; b) nitroanilin; v) o-fenilendiamin; g) o-anizidin; d) n-fenetidin; e) simm-tribromanilin; j) N-benzil-N-etilanilin; z) benzidinlarning struktura formulalarini yozing.

2. Etil yodidni ammiak bilan ta'sirlashuvidan qanday birikmalar hosil bo'ladi? N-alkillash reaksiya mexanizmini tahlil qiling.

3. a) Trimetilammoniy xlorid; b) metilpropil ammoniy yodidlardan erkin aminlarni qaysi reagentlar yordamida ajratib olish mumkin. Reaksiya sxemasini yozing.


Olinishi usullari

6-variant

1. Etil spirtini ammiak bilan Al_2O_3 ishtirokida qizdirishdan qanday birikma hosil bo'ladi? Reaksiya sxemasini yozing.

2. Propilen va noorganik reagentlardan izopropil ammoniy xlorid oling.

3. O'tish yo'llarini taklif qiling:



7-variant

1. Propilyodiddan qo'shimcha mahsulotlarsiz propilamin hosil qiling.
2. Propion aldegididan ammiakni alkillash orqali propilamin hosil qiling. Bu usul bilan metilpropilamin olish uchun qanday birikmalardan foydalanish kerak?
3. 1-nitropropan va 2-nitrobutanni qaytarib, qaysi aminlarni hosil qilish mumkin? Reaksiya sharoitlarini ko'rsating.

8-variant

1. Quyidagi birikmalarni qaytarib qanday aminlarni hosil qilish mumkin? a) asetaldegidoksimi, b) propion kislota nitrili, v) metilkarbilamin; g) 2-nitro-2-metilpropan; d) adipin kislota dinitrili. Reaksiya sxemalarini yozing.

2. LiAlH₄ yordamida: a) moy kislota amidi; b) propion kislota nitrilining qaytarilishidan qanday birikma hosil bo'ladi?

3. Gofman qayta guruhanishi yordamida propion kislota amididan etil amin hosil qiling.

9-variant

1. Quyidagi usullar bilan uchlamchi-butilamin hosil qiling: a) ammiakni alkillash; b) kislota amididan Gofman qayta guruhanishi orqali? Qaysi usul qulay hisoblanadi? Nima uchun?

2. Valerian kislotadan amilamin va butilamin hosil qiling.

3. a) Ammiakni alkillab; b) ftalimid usuli bilan; v) Gofman qayta guruhanishi orqali butilamin hosil qiling.

10-variant

1. Adipin kislotadan geksametilendiamin hosil qiling.

2. Anilinni sanoatda olish usullarining reaksiya sxemalarini yozing.

3. Aromatik aminlar olish uchun aromatik uglevodorodlarning qanday hosilalaridan foydalaniladi? n- Toluidin olish sxemasini taklif qiling.

11-variant

1. a) n- Nitrotoluolni H₂SO₄ ishtirokida qo'rg'oshin-(II)-xlorid bilan; b) 2,4-dinitrobenzolni Ni katalizatorligida vodorod bilan; v) n-nitroanilinni Reney nikeli ishtirokida gidrazin bilan; g) m- nitrobenzolni suv muhitida natriy sulfid bilan reaksiyasini yozing.

2. m - Nitrobenzolsulfokislotani ishqoriy muhitda qaytarib qanday birikmalar hosil qilish mumkin? O'zgarishlar sxemasini yozing.

3. Benzoldan 2,4-diaminotoluol sintez qilish sxemasini taklif qiling.

12-variant

1. Benzolsulfokislotadan m-aminofenol hosil qiling.


2. m-Dixlorbenzoldan 2,4,5-triaminonitrobenzolni qanday olish mumkin?

3. o-Toluidin asosida: a) N,N-dietil-o-toluidin; b) N-benzil-o-toluidin; v) N,N-difenil-o-toluidin sintez qilish reaksiya sxemalarini yozing.

13-variant

1. a) Fenilnitrometandan; b) benzil xloriddan; v) benzonitrildan; g) benzaldegiddan qanday sharoitlar va qaysi reagentlardan foydalanib benzilamin hosil qilish mumkin?

2. Quyidagi o‘zgarishlar natijasida qanday birikma hosil bo‘ladi:



3. Benzol asosida fenilendiamining barcha izomerlarini olish reaksiya sxemalarini yozing.

Tuzilishi. Xossalari.

14-variant

1. Metilaminni elektron va fazoviy tuzilishini yozing.

2. Uchlamchi aminlar (azot atomi bilan turli uglevodorod radikallari bog’langan) nima uchun optik faollik namoyon qilmaydi?

3. Nima uchun nitrobirikmalarda nitroguruhiiga nisbatan α -holatda joylashgan uglerod atomlaridagi vodorodlar o‘ta faol, aminobirikma molekulasidagi bunday faollikni namoyon qilmaydi?

15-variant

1. Aminlarning asos xossasini namoyon qilishi nima bilan tushuntiriladi? Quyidagi birikmalarni asos xossasining ortib borish tartibida joylashtiring: metilamin, dimetilamin va trimetilamin.

2. Quyidagi birikmaning qaysi biri yaqqol asos xossasini namoyon qiladi? a) $(CH_3CH_2)_2N$; b) $(C_2H_5)_4N^+ON^-$; v) $CH_3CH_2HN_2$. Javobingizni izohlang.

3. Geksilamin, etilbutilamin va trietilaminlarni bir-biridan farqlash uchun qanday spektral usuldan foydalanish kerak;

16-variant

1. Etilamindan dietilamin, trietilamin hosil qiling. Galogenli hosilalar yordamida N-alkillash reaksiya mexanizmini yozing. Boshlang’ich amin va reaksiya mahsulotlarini ajratish uchun qaysi kimyoviy jarayonlardan foydalanish mumkin?

2. Propil bromiddan tetrapropilammoniy yodid hosil qiling.

3. a) Tetraetilammoniy bromid; b) dimetiloksoniy xlorid; v) trietilsulfon yodid olish reaksiya sxemalarini yozing.

17-variant

1. Tetrametilammoniy gidroksidning qizdirilishidan hosil bo‘ladigan birikmaning struktura formulasini yozing.

2. a) Tetrametiletamilammoniy gidroksid; b) dimetiletilpropil-ammoniy qizdirilishi natijasida qanday birikma hosil bo‘ladi? Gofman qoidasini ta’riflang.

3. Quyidagi birikmalarni termik parchalanishidan qanday mahsulotlar olinadi:



18-variant

1. Propilaminni asetillashni qanday amalga oshirish mumkin? Reaksiya sxemasini yozing. Boshlang’ich va oxirgi mahsulotni asoslik hossasini taqqoslang.

2. Propilamin, metiletilamin va trimetilaminlarga azot kislotasi ta’sir ettiring. Bu reaksiyalarning qanday ahamiyati bor?

3. Trietilaminni vodorod peroksid bilan reaksiyasini yozing. Hosil bo‘lgan mahsulotdagi bog’ harakteri va uning fazoviy tuzilishini tushuntiring.

19-variant

1. Propilaminni HCl , $(CH_3CO)_2O$, CH_3CH_2J , HNO_2 bilan reaksiyalarini yozing.

2. a) Etilamin; b) metilpropilamin; v) trietilaminlarning qaysilari; a) HCl ; b) CH_3J ; v) CH_3COCl ; g) HNO_2 lar bilan reaksiyaga kirishadi. Reaksiya sxemasini yozing.

3. a) Asillash reaksiyasiga kirishmaydigan $C_4H_{11}N$ tarkibli aminning, b) Gofman qayta guruhlanishi orqali izobutilamin hosil qiladigan amidning struktura formulalarini yozing.

20-variant

1. Anilin molekulasida elektron zichligi qanday taqsimlangan?

2. Aromatik aminlarda benzol halqasi va aminoguruxning o‘zaro ta’sirini harakterlang. Quyidagi aminlarning asos xossasi ortib borish tartibida joylashtiring: a) anilin; b) benzilamin; v) n-anizidin; g) n-nitroanilin.

3. a) Anilin; b) difenilamin; v) trifenilamin qatorda asos xossasi qanday o‘zgaradi.

21-variant

1. a) Anilin xlorgidrat; b) o-toluidin vodorod bromid tuzi; v) n-anizidin bisulfatlarni olish reaksiya sxemalarini yozing.

Bu tuzlardan erkin asoslarni ajratish yo'llarini taklif qiling.

2. Toluidinga: a) sirkə angidrid; b) n-toluolsulfoxlorid ta'siridan qanday birikmalar hosil bo'ladi.

3. Monoetilanilining sirkə angidrid bilan qizdirilishidan qanday birikma hosil bo'ladi? Hosil bo'lgan mahsulotni ishqor eritmasi ishtirokida qizdirilishidan qanday birikma hosil bo'ladi?

2-mashg'ulot. Aromatik aminobirikmalar.




Nitrobirikmalarni kislotali, ishqoriy, neytral muhitlarda va katalitik usulda qaytarib, aromatik aminlar olish. Qaytarish jarayonida hosil biluvchi oraliq mahsulotlar va ularni bir-biriga aylanishi. Benzidin va semidin qayta guruhlanishi. Aromatik aminlarning kimyoviy xossalari. Diazobirikmalar. Diazobirikmlarning azot ajralib va ajralmasdan amalga oshadigan reaksiyalari. Azobirikish reaksiyası, azobiyoqlar

Aromatik yadrosining vodorod atomi o'mida NH_2 guruhi tutgan birikmalar aromatik aminlar deb ataladi.





Eng sodda aromatik aminga




Anilinning gomologlari:




Agar aromatik amin molekulasida azot atomi bitta aromatik halqaga bog'langan bo'lsa birlamchi, ikkita aromatik halqaga bog'langan bo'lsa ikilamchi, uchta aromatik halqaga bog'langan bo'lsa uchlamchi aromatik amin deb ataladi:




Aromatik yadroda bir nechta aminoguruh bo‘lishi ham mumkin:



Aminlarni olish usullari. Aromatik aminlarni olishni bиринчи bo‘lib N.N. Zinin taklif etган. U nitrobenzolni vodorod sulfid bilan qaytarib anilin oлган:




Keyinchalik nitrobenzolni qaytarishning boshqacha usullari ishlab chiqilgan:




Shunday usullar yordamida nitrotoluollarni qaytarib o-, p- va m-toluidinlar olinadi.


Aromatik nitrobirikmalarни qaytarish murakkab bo‘lib, kislotali muhitda hosil bo‘ladigan oraliq moddalar tezlik bilan anilingacha qaytariladi:




Nitrobenzolni neytral muhitda qaytarilsa, reaksiya fenilgidroksilamin hosil bo‘lish bosqichida to‘xtaydi:




Shunday qilib, fenilgidroksilamin nitrobenzoldan anilin hosil bo‘lishida oraliq mahsulot bo‘lib, uni oksidlanishidan yana nitrobenzolga qaytib itish mumkin:



Nitrozobenzol nitrobenzolni qaytarish jarayonida birinchi hosil bo'luvchi oraliq modda bo'lib, u osongina fenilgidroksilamonga o'tadi, uni fenilgidroksilaminni oksidlab olish mumkin:




Nitrozobenzol va fenilgidroksilamindan qaytarib anilin olinadi:




Aminlarning xossalari. Anilin o'z xossalari bo'yicha alifatik aminlardan farq qiladi. U kuchsiz asos bo'lib, kuchsiz kislotalar bilan tuz hosil qilmaydi. Ammo kuchli kislotalar bilan tuz beradi. Buning sababi azot atomining bir juft elektronlari aromatik yadroning π -elektronlari bilan ta'sirlashib qolishidadir. Demak, azot atomining p elektronlari va aromatik halqaning π -elektronlar buluti bilan o'zaro ta'sirlashadi.


Anilin juda oson galoidlanadi. Ya'ni NH_2 guruh reaksiya borishini osonlashtiradi:




Lekin anilinni sulfolash yuqori haroratda olib boriladi. Bunga sabab, reaksiyaning birinchi bosqichida aminogruppa sulfolanadi:




Anilinni nitrolash uchun avval uni atsillanadi, so'ngra nitrolanib, hosil bo'lgan mahsulot gidrolizlansa, o- va p-nitroanilin hosil bo'ladi:





Aromatik aminlarni kislota xlorangidridlari yoki angidrididlari bilan atsillash mumkin. Hosil bo‘lgan moddalar anilidlar deb ataladi:



Aromatik aminlarning aromatik al’degidlar bilan reaksiyasi natijasida esa «Shiff asoslari» deb nomlangan moddalar sintez qilinadi:




Azot atomi bo‘yicha alkil guruhi tutgan hosilalar olish uchun esa anilin va spirt (metanol) aralashmasi bug’lari Al_2O_3 ustidan o‘tkazilsa alkil va dialkilanilinlar hosil bo‘ladi:



Bu moddalar ko‘p miqdorda tayyorlanadi, chunki ular antideetonator sifatida va bo‘yoq tayyorlashda ishlataladi.

Ikilamchi va uchlamchi aromatik aminlar. Agar anilinning HCl li tuzi qizdirilsa ikilamchi aromatik amin-difenilamin hosil bo‘ladi:



Difenilamin va boshqa ikilamchi aminlar antioksidant sifatida plastmassalarni oksidlanishdan saqlash uchun ishlataladi.

Difenilaminning natriyli hosilasini yodbenzol bilan mis ishtirokidagi reaksiyasi amalga oshirilsa uchlamchi «trifenilamin» hosil bo‘ladi.



Uchlamchi aromatik aminlar asos xossasiga ega emas.

Nazorat savollari.

1. Aminobirkimlar qanday xossani namoyon qiladi. Nima uchun.
2. Aminlar nima asosida birlamchi, ikilamchi va uchlamchi deb ataladi.

3. Goffman reaksiyasi bilan faqat birlamchi amin olish mumkinmi. Bekman qayta guruhlanishi bilanchi. Javobingizni reaksiya tenglamalarini yozib izoshlang.
4. Goffman reaksiyasining mexanizmi qanday.
5. Bekman, Lossen va Kursius qayta guruhlanishlaridagi umumiylig nimadan iborat.
6. Bekman qayta guruhlanishining sanoat ahamiyati nimada.
7. Birlamchi, ikilamchi va uchlamchi aminlarda asoslik xossasi qanday o‘zgaradi.
8. Aminlarning qaynash haroratlarida qanday qonuniyat kuzatiladi.

Variantlar


1-variant

1. Anilin asosida quyidagi birikmalarni hosil qiling.



Ularni nomlang.

2. Quyidagi o‘zgarishlar natijasida qanday birikmalar hosil bo‘ladi?




3. n-Toluidinni etil bromid bilan qizdirilishidan qanday birikma hosil bo‘ladi? Anilinni ortiqcha metil spirti bilan avtoklavda $230^\circ S$ qizdirilishidan hosil bo‘ladigan mahsulotni nomlang. Asosiy mahsulotni qo‘shimchalardan qanday ajratish mumkin?

2-variant

1. a) n-Anizidinni N-asillash, N-alkillash va N-arillash reaksiyalariga misollar yozing. Hosil bo‘lgan mahsulotlar qanday birikmalar sinfiga mansub hisoblanadi?

2. Quyidagi birikmalarning qaysi biri izonitrillash reaksiyasiga kirishadi: a) m-toluidin; b) N-butilanilin; v) dimetilanilin. Reaksiya sxemasini yozing.

3. Quyidagi Shiffa asoslarini sintez qiling:



1. a) o-Toluidin; b) benzilamin; v) etilanilin; g) dimetilanilin; d) trietilaminlarning azot kislotasi bilan reaksiyasini yozing. Reaksiya mahsulotlarini nomlang.

2. a) Anilin; b) m-dinitrobenzol asosida m-nitroanilin oling. m-Nitroanilin hosil qilish uchun qaysi usul qulay hisoblanadi? Dimetilaminoguruh I-tur o‘rinbosari bo‘lib orto- va para- holatlarga yo‘naltiradi. Nima uchun dimetilanilinni nitrolashda (kons. H_2SO_4 ishtirokida) asosiy mahsulot m-nitrodimetilanilin hosil bo‘ladi?


3. Qanday qilib, anilindan n-nitroanilin olish mumkin?

4-variant

1. Anilindan sulfanil kislota hosil qiling.

2. Anilindan n-bromanilin olish reaksiya sxemasini yozing?

3. Quyidagi o‘tishlarni amalga oshiring:



4. Benzidin qayta guruhlanishidan 2,2-dimetoksi-4,4-diaminodifenil hosil qiladigan gidrazobirikmaning struktura formulasini yozing.

16-AMALIY MASHG'ULOT. Diazo- va azobirikmalar.


Azobo'yoqlar. Turlari, olinishi va xossalari.

Diazobirikmalar. Diazotirlash reaksiyasi. Diazobirikmalarning azot ajralib chiquvchi reaksiyalari. Azoqo'shilish reaksiyalari va ularning mexanizmi. Azobirikmalar haqida tushuncha. Diazo- va azobirikmalar mavzusiga oid masalalar echish.


Diazobirikmalarning umumiy formulasi:




Azobirikmalarning umumiy formulasi




fenildiazoniy
xlorid




fenildiazoniy
borftorid




fenildiazobenzol




para-sulfofenildiazo-4-
gidroksibenzol




fenildiazogidrat yoki
gidrazobenzol




para-tolildiazoniy bromid




fenildiazotat




para-nitrofenildiazoniy
borftorid




para-xlorfenildiazoniy
xlorid




para-fenilazo para-toluol;
para-oksiazotoluol



2,4-dinitrofenil
diazoniyxlorid




para-bromfenilazo-para-
brombenzol










para-diaminoazobenzol

Diazotirlash reaksiyasi:




1) Azot chiqishi bilan ketuvchi reaksiyalar




orto-tolildiazoniy sulfat


2) Azot chiqmasdan ketadigan (azoqo 'shilish) reaksiyaları;



Fenilgidrazinin vodorod xloridli tuzi



para-oksiazobenzol



para-dimetilaminoazobenzol

-N=O; >C=O; -NO₂; -N≡N- lar **xromofor** (*Xromos*-rang, *Foreotashiyma*) guruhlari hisoblanadi. Shuning hisobiga bu birikmalar ma'lum rangli bo'yoqlardir (*Auksoxrom* -rang kuchaytiruvchi: -OH; -NH₃ va x.k.).

Diazoniy tuzini hosil bo'lish mexanizmi: NaNO₂+HCl→HNO₂+NaCl




Nazorat savollari.

1. Alifatik diazobirimlar nega beqaror bo'ladi va ularning qarorligini oshirish uchun nima qilish kerak?
2. Diazometanni olish uchun qanday birikma olish va sharoit hosil qilish kerak?
3. Diazometan yordamida anizol va metilatsetat olish reaksiya tenglamalarini yozing.
4. Diazometanning sirka aldegidi va atsetonlar bilan reaksiya tenglamalarini yozing.
5. Diazometandan metil-uchlamchi butil efirini sintez qiling.
6. Diazometandan metiltsiklopropan va 1,1-dimetiltsiklopropan sintez qilish sxemasini taklif qiling.
7. Ochiq zanjirli diazometan bilan tsiklik diazometanning xossalardagi farqni ko'rsating.
8. Diazometanning butin-2 ga tsiklobirikish reaksiya tenglamasini yozing.
9. Aromatik diazobirkmlarning tuzilishi va nomlanishi.
10. Aromatik diazobirkmlar olishda Gris P. reaksiyasining mexanizmini anilin misolida yozing.
11. Aromatik diazobirkmlarning tuzlarida azot chiqishi bilan ketadigan reaksiyalar: Zandmeyer T., va Meyerveyn X. reaksiyalari.
13. Aromatik diazobirkmlarning azot chiqmasdan ketadigan reaksiyalar: diazotatlar hosil bo'lishi; oksidlanish reaksiyasi.
14. Aromatik diazobirkmlarning azoqo'shilish reaksiyasi qanday mexanizmda ketadi? Dimetilanilin va fenildiazoniy xloridini azoqo'shilish reaksiyasi misolida tushuntiring.
15. Azobo'yoqlardagi auksoxrom va xromofor guruhlarning ahamiyati.

Izomeriyasi va olinish usullari.

1-variant

1. Tuzilishiga ko'ra azo- va diazobirkmlar nimasi bilan farq qiladi? Quyidagi formulalarning qaysilari azo- va qaysilari diazobirkmlar hisoblanadi, ularni nomlang:















2. a) n-Toluidiazoniyxlorid; b) o-bromfenildiazoniybromid; v) n-sulfofenildiazoniy gidrosulfat; g) o-nitrofenildiazoniy borftoridi; d) n-metoksifenildiazoniy yodidlarning struktura formulalarini yozing.

3. a) o-Xlorfenildiazoniy borftorid; b) N-nitrodiao-n-bromanilin; v) *anti*-n-kaliy metoksifenildiazotat; g) *sin*-natriyfenildiazotat; d) m-nitrofenildiazoniy hidroksid;

2-variant

1. Quyidagi diazoniy birikmalarini nomlang:



2. a) Azobenzol; b) 4-nitro-dimetilaminoazobenzol; v) 3-karboksi-4-oksiazobenzollarning struktura formulalarini yozing.

3. Diazotirlash reaksiyasiga ta'rif bering. Diazotirlash qanday sharoitlarda olib boriladi? Anilinni xlorid kislota muhitida diazotirlash sxemasini yozing.

3-variant

1. Quyidagi birikmalarning qaysilari diazoniy tuzlarini hosil qiladi: a) n-toluidin; b) N-etilanilin; v) propilamin; g) sulfanil kislota; d) siklogeksilamin; e) dimetilanilin; j) o-xloranilin; z) benzilamin. Reaksiya sxemalarini yozing.

2. a) Fenildiazoniy xlorid; b) n-nitrofenildiazoniy bromid; v) o-metoksifenildiazoniy bisulfat tuzlarini olish sxemalarini yozing.

3. n-Toludinni xlorid kislotali muhitda diazotirlash reaksiyasini yozing. Mineral kislotaning roli qanday? Amin va azot kislotasi qanday shaklda ta'sirlashadi?

4-variant

1. Azot kislotasini $0 - 5^{\circ}S$ da (H_2SO_4 ishtirokida) siklogeksilamin va anilinga ta'sirini taqqoslang. Nima uchun turli sinflarga tegishli birikmalar hosil bo'lishini tushuntiring.

2. Benzidinni sulfat kislota muhitida diazotrlash mumkinmi?

3. Azoqo'shish reaksiyasi deb nimaga aytildi? Fenildiazoniyloridini: a) fenol; b) dimetilanilin bilan reaksiyasini yozing.

Xossalari

5-variant

1. n-Nitrofenildiazoniyloridning a) $CuCl$; b) $CuBr$; v) $CuCN$; g) KJ lar ta'sirida parchalanishidan hosil bo'ladigan mahsulotlarni nomlang.

2. Diazoniylarining tuzilishi haqida ma'lumot bering. Diazoniylar ammoniy tuzlari orasidagi bog'liqlik va farqlarni izohlang.

3. n-Xlorfenildiazoniyloridga ketma-ket kuchsiz asos (nam kumush oksidi) va kuchli asos ($NaOH$) ta'siridan hosil bo'ladigan birikmaning struktura formulasini yozing.

6-variant

1. Dizotatlar deb qanday diazobirikmalarga aytildi? Ularning tuzilishi haqida ma'lumot bering. Ular qanday sharoitlarda hosil bo'ladi? Misollar keltiring.

2. *Sin-* va *anti-* dizotatlarga mineral kislotalar ta'siridan qanday birikmalar hosil bo'ladi? *Sin-* va *anti-n*-bromfenildiazotat natriylar uchun reaksiya sxemalarini yozing.

3. m-Nitrofenildiazoniylorid misolida, diazobirikmalarning pH o'zgarishi bilan boradigan reaksiyani tushuntiring.

7-variant

1. a) n-Etilfenildiazoniylorid; b) n-nitrofenildiazoniylorid; v) fenildiazokislota g) m-bromfenildiazotat kaliylar; d) fenilnitrozaaminlarning struktura formulalarini yozing. Ular qanday erituvchilarda (kislota, neytral yoki ishqoriy) saqlanadi?

2. n-Nitroanilindan n-nitrofenildiazokislota natriyli tuzini sintez qilish sxemasini yozing.

3. Fenildiazoniylorid bisulfatning suvli eritmasi qizdirilishidan qanday birikma hosil bo'ladi?

8-variant

1. Benzolsulfokislota tuzidan ishqor ta'sirida va diazoniy tuzidan fenol hosil qiling.

2. Quyidagi birikmalarni qaysilarini diazobirikmalarni gidrolizlab, qaysilarini esa- ishqoriy eritma orqali olish qulay: a) m-nitrofenol; b) n-krezol; v) n-xlorfenol; g) rezorsin. Reaksiya sxemalarini yozing.



3. Anilindan n-nitrofenol hosil qiling.

9-variant

1. Fenildiazoni xloridni suv – metanol muhitida termik parchalashda nima uchun fenoldan tashqari anizol monometil xosil bo'ladi?

2. o-Nitroxlorbenzoldan pirokatexinning monometil efirini hosil qiling.

3. Quyidagi o'zgarishlar sxemasini to'ldiring:



10-variant

1. Nima uchun fenildiazoni borftoridini nitrobenzol muhitida qizdirishdan ftorbenzol bilan bir qatorda 3-nitrobifenil hosil bo'ladi?

2. Toluoldan o-xlortoluol hosil qiling.

3. m-Nitroanilindan m-bromanilin sintez qiling.

11-variant

1. Toluoldan o-toluil kislota hosil qiling.

2. Benzoldan m-yodxlorbenzol hosil qilish sxemasini taklif qiling.

3. m-Nitrobenzoy kislotadan 2,4,6-tribrombenzoy kislota oling.

11-variant

1. Nesmyanov usulida: a) n-oksifenil simob xloridi; b) n-karbetsifensimob xloridi kabi metaloorganik birikmalarni hosil qiling.

2. Agar anilinni kam miqdor xlorid kislota ishtirokida diazotrlansa, yaltiroq diazoniy tuzi o'rniga, tiniq – sariq cho'kma hosil bo'ladi. Bu cho'kmaning tuzilishi qanday? Uning hosil bo'lish sxemasini yozing.

3. a) m-Dinitrobenzoldan m-nitrofenol, b) benzoldan n-nitrobenzoy kislota nitrili; v) toluoldan m-toluil kislota nitrili; g) n-nitroanilindan m-dibrombenzol; d) anizoldan *anti*-n-metoksifenildiazotat natriy olish reaksiya sxemalarini yozing.

12-variant

1. a) Dimetilanilin; b) benzolsulfokislota; v) solisil kislota; g) m-nitrotoluol; d) pikrin kislota; e) n-etilfenollardan qaysilari fenildiazoniylorid bilan azoqo'shish jarayoniga kirishadi? Reaksiya sxemasini yozing.

2. n-Nitrofenildiazoniyni dimetilanilin, shuningdek fenol bilan azoqo'shish reaksiya sxemasini yozing.

3. Diazoniylarini fenol, shuningdek aminlar bilan azoqo'shish reaksiyalarini qanday sharoitlarda olib borish kerak?

13-variant

1. Quyidagi o'garishlar natijasida hosil bo'ladigan oraliq hamda oxirgi mahsulotni nomlang.

2. a) Anilin; b) n-toluidin; v) n-nitroanilinlarni diazotlash natijasida hosil bo'ladigan diazoniy-kationlarning struktura formulalarni yozing. Bu kationlarni elektrofilligi kamayib borishi tartibida joylashtiring. Ularni fenol bilan azoqo'shish reaksiyalarini yozing.

3. Nima uchun mezitilen 2,4,6-trinitrofenildiazoniyl bisulfat bilan azoqo'shish reaksiyasiga kirishadi? Reaksiya sxemasini yozing.


17-AMALIY MASHG'ULOT. Sulfokislotalarni tuzilishi, olinishi va xossalari.

Tuzilishi, izomeriyasi, olinishi, nomlanishi. Fizik va kimyoviy xossalari. Sulfoguruh reaksiyalari. Sulfoguruh almashinadigan reaksiyalar. Aromatik halqa reaksiyalari. Ayrim vakillari va ularning ishlatalishi. Sulfon kislotalar mavzusiga oid masalalar echish.

Sulfon kislotalar

Oltingugurt organik birikmalar deb, C-S bog'iga ega bo'lgan organik moddalarga aytildi.








Sulfon kislotalar va ularning hosilalari quyidagi umumiyl tuzilish formulasiga egadir:





Sulfon kislotalarni va sulfonlarni sulfat kislota hosilalari deb qarash mumkin. Kislota molekulasidagi bir yoki ikkala ON guruhi uglevodorod qoldig'i bilan almashingandir. Sulfon kislotalar hosilalariga: efirlar, amidlar, xlorangidridlar kiradi.

Bu birikmalarning nomlanishi uchun uglevodorod va oltingugurt tarkibli funktsional guruhlar nomlari asos bo‘ladi.

IYUPAK nomenklurasiga asosan sulfon kislotasi - qo‘shimchasi qo‘shilib nomlanadi. Shuningdek sulfokislota so‘zi ham ishlataladi:

$\text{CH}_3\text{SO}_3\text{H}$ metansulfokislota $\text{CH}_3\text{SO}_3\text{Na}$ metansulfokislatasining natriyli tuzi	$\text{CH}_3\text{CH}_2\text{SO}_3\text{H}$ etansulfokislota $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{SO}_3\text{Na}$ etansulfokislota natriyli tuzi
 Benzolsulfonat  benzolsulfokislota	 1,3-disulfobenzol $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{SO}_2\text{Cl}$ etansulfoxlorid
 orto-sulfanilkislota natriyli tuzi	 orto-nitrosulfokislota natriyli tuzi
$\begin{array}{c} \text{CH}_3-\text{CH}-\text{CH}_3 \\ \\ \text{SO}_3\text{H} \end{array}$ izopropan sulfokislota $\begin{array}{c} \text{CH}_3-\text{CH}-\text{CH}_3 \\ \\ \text{SO}_3\text{Na} \end{array}$ izopropan sulfokislota natriyli tuzi	$\text{CH}_3\text{SO}_2\text{Cl}$ metansulfoxlorid $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{SO}_2\text{NH}_2$ etansulfamid $\text{CH}_3\text{SO}_2\text{NH}_2$ metansulfamid
 1,3,5-benzoltrisulfokislota	 para-sulfanil kislota natriyli tuzi  para-sulfanil kislota


 para- nitrosulfokislotsasi natriyli tuzi	$C_3H_7SO_3H$ propansulfokislota $C_3H_7SO_3Na$ propansulfokislotsasi natriyli tuzi
 para- nitrosulfokislotsasi	

Sulfon kislotalarning olinish usullari

1. Alkansulfokislotalar va aromatik sulfokislotalarni olish usullari farq qiladi.


Alkanlar va tsikloalkanlarni sulfolash reaksiyalarining deyarli barchasi erkin radikal mexanizmda ketadi.

a) Sulfoxlorlash reaksiyasi. Bu reaksiya UB-nur ta'sirida SO_2 va Cl_2 gazlari ishtirokida ketib, UB-nur ta'sirida erkin xlor va alkil- radikallari hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan alkil radikali esa SO_2 bilan ta'sirlashadi:




Alkansulfokislotalarning xlorangidridlari yuvish vositalari ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.


b) Alkanlarning sulfooksidlanish reaksiyasi: UB-nur ta'sirida alkanlar SO_2 bilan O_2 ishtirokida ta'sirlashadi. Reaksiyani amalga oshirish uchun uzluksiz nur berib turish kerak. Natijada alkanlardan erkin radikallar hosil bo'lib, SO_2 va O_2 bilan ta'sirlashib, alkansulfon kislotalar hosil bo'ladi:



alkanperoksisulfon kislotasi
Alkanperoksisulfon kislotalar osongina parchalanib yangi erkin radikallarni hosil qiladi:



alkansulfokislotalar
v) Arensulfokislotalar aromatik birikmalarni osonlik bilan konsentrangan sulfo kislotasi yoki oleum bilan sulfatlash usulida olinadi:



Benzol qiyin sulfolanadi, toluol, ksilol va benzolning boshqa gomologlari oson sulfolanadi. Sulfolash reaksiyasi elektrofil almashinish reaksiyasi mexanizmida ketadi:




Nazorat savollari.

Izomeriyasi. Nomenklaturasi. Olinish usullari

1-variant

1. Quyidagi birikmalarning struktura formulalarini yozing: a) benzolsulfokislotasi; b) toluol sulfokislotaning barcha izomerlarini; v) simm-benzolsulfokislotasi.

2. Quyidagi birikmalarni nomlang:



3. Benzolni sulfat kislotasi ishtirokida sulfolash sxemasini yozing. Jarayonda qanday qo'shimcha mahsulotlar hosil bo'lishi mumkin?

2-variant

1. Benzol mono-, di- va trisulfokislotasi olish reaksiya sharoitlarini ko'rsating. Reaksiya sxemalarini yozing.

2. Benzol, toluol va nitrobenzollarni monosulfolash reaksiya sxemalarini yozing.

3. Qanday sulfolovchi agentlarni bilasiz? Toluol va nitrobenzolni sulfolash va xlorsulfolash reaksiyalarini yozing.

3-variant

1. Toluolni 0°S da sulfat kislota yordamida sulfolashdan 42% o-toluolsulfokislota va 54% n-izomer, 100°S da 13 va 79% miqdorida bu izomerlar hosil bo‘ladi? Nima uchun?

2. Benzoldan o-, m- va n-xlorbenzolsulfokislotalar hosil qilish usullarini taklif qiling.

3. Toluoldan 4-nitro-2-toluolsulfokislota; benzoldan 2-xlor-5-nitrobenzolsulfokislotalar olish usullarining sxemalarini yozing.

Xossalari

4-variant

1. Sulfoguruhning tuzilishini tahlil qiling va benzol halqasidagi elektronlarning taqsimlanishiga bu guruhning ta’sirini harakterlang. Sulfoguruh nechanchi tur o‘rinbosari hisoblanadi.

2. Benzolsulfokislotadagi benzol halqasi vodorodining elektrofil o‘rin olish reaksiyalariga misollar keltiring.

3. n-Toluolsulfokislotadan n-toluolsulfokislota natriyli tuzini hosil qiling.

5-variant

1. o - Toluolsulfokislotadan o-toluil kislota nitrilini hosil qiling.

2. Benzolsulfokislotaning gidrolizlanish reaksiya sxemasini yozing.

3. Izomer ksilollarni sulfolashdan hosil bo‘ladigan monosulfokislotalarning izomerlarini yozing. Ularning qaysi biri oson sulfolanadi.

6-variant

1. Nima uchun mezitilensulfokislota 2,4,6-tribrombenzolsulfokislotaga nisbatan bir necha marta tez gidrolizlanadi?

2. Benzolsulfokislotaning: a) Na-li tuzi; b) n-toluidin tuzi; v) xlorangidridi; g) amidi; d) metilefiri kabi hosilalarini olish sxemalarini taklif qiling.


3. Benzolsulfokislota xlorangidridini: a) qaytarilishidan ($\text{Zn}+\text{HCl}$ ishtirokida); b) Fridel-Krafts reaksiyasi sharoitida benzol bilan ta’sirlashuvidan qanday birikmalar hosil bo‘ladi?

7-variant

1. Toluoldan n-toluolsulfokislota metil efiri sintez qilish sxemasini yozing. Hosil bo‘lgan mahsulotga: a) fenol; b) anilin ta’sir ettiring.

2. Benzoy kislota amidi va benzolsulfokislota amidini tuzilishlarini taqqoslang. Bu birikmalarning kimyoviy xossalariidagi farqlar nimada?


3. Quyidagi o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘ladigan oraliq va oxirgi mahsulotlarning struktura formulalarini yozing:



(III) va (IV) mahsulotlar qanday amaliy ahamiyatga ega? (III) birikmaning gidrolizlanish reaksiya sxemasini yozing.

8-variant

1. n-Toluolsulfokislotadan: a) toluol; b) n-krezol; v) n-toluil kislota olish sxemalarini yozing.
2. Anilindan sulfanilkislota hosil qiling.
3. Quyidagi o‘zgarishlarni to‘ldiring:



9-variant

1. Benzolsulfokislotadan: a) tiofenol; b) difenil sulfid; v) difenilsulfon oling.
2. Fenoldan qo‘shimcha mahsulot (para-izomer)siz o-bromfenol hosil qiling.
3. Quyidagi o‘tishni qanday bosqichlar orqali amalga oshirish mumkin


Qo‘shimcha mahsulotlarsiz hosil bo‘lish yo‘llarini taklif qiling.

4. Kaliy permanganat bilan oksidlanishdan sulfobenzoy kislota, o‘yuvchi natriy bilan ta’sirlashuvidan – o-krezol hosil qiladigan C₇H₈O₃Cl tarkibli birikmaning tuzilishini aniqlang.


18-AMALIY MASHG'ULOT. Aralash funksiyali birikmalar.

1-mashg'ulot. Oksikislotalar. Bir asosli ikki atomli, ikki asosli uch atomli va ikki asosli to'rt atomli oksikislotalar. Tuzilishi, izomeriyasi, nomlanishi, olinishi va xossalari. Optik izomeriya haqida tushuncha. Ratsematlarni antipodlarga ajratish usullari. Mavzuga oid misol va masalalar echish.

Tarkibida ham gidroksil guruh, ham karboksil guruh tutgan birikmalar gidroksikislotalar (oksikislotalar) deb ataladi. Boshqacha aytganda ular spirt-kislotalardir. Gidroksil va karboksil guruhlarning bir-biriga nisbatan joylanishiga qarab gidroksikislotalar α -, β -va γ -oksikislatalarga bo'linadi. M-n:




Oksikislatalardan sut kislotasi, olma kislotasi, vino kislotasi juda qadimdan ma'lum. Bu moddalar ham spirtlar, ham kislotalar kabi reaksiyaga kirishishlari bilan bir qatorda ularga fazoviy izomerianing bir turi-optik izomeriya xosdir. Vant-Goff va Le-Bellarning (1871) fikricha molekula tarkibida 4 xil guruh bilan birikkan uglerod (asimetrik) atomi mavjud bo'lsa, u 2 xil optik izomerlar hosil qiladi. M-n, sut kislotasi shunday izomerlar hosil qiladi:




Bu izomerlarni ko'zgu izomerlari deb ham aytildi. Ular qutblangan nurni o'ngga(+) yoki chapga (-) bir xil burchakka buradi. Izomerlar soni molekula tarkibidagi asimetrik atomlarining soni n bo'lganda $N=2^n$ ga teng. Ular D va L qatorlarga bo'linadi.

Bunda D va L harflar nisbiy konfigurasiya qatorlarining ifodasidir. Bu qator o'nga buruvchi (+) va chapga buruvchi (-) gliserin al`degidlari tuzilishlariga nisbatan olingan qatordir. O'nga buruvchi gliserin al`degidining tuzilishi quyidagicha ko'rsatilgan va u D qatorning boshlovchisi deb belgilangan.



D (+) glitserin aldeгidi




Bu erda D harfi o'nga buruvchi ma`nosini anglatsa ham, shu qatorga mansub optik faol birikmalar chapga buruvchi (-) bo'lishi mumkin. Chapga buruvchi gliserin al`degidi(-)ning tuzilishi esa quyidagi shaklda ko'rsatilgan:



va u L qatorning boshlovchisi deb belgilanagan. Bu erda L harfi chapga buruvchi ma`nosini anglatsa ham, shu qatorga mansub optik faol birikmalar o'nga buruvchi (+) bo'lishi mumkin. Demak, D va L ifodalar nisbiy konfigurasiya ifodalaridir. O'nga buruvchi (+) va chapga buruvchi (-) gliserin al`degidlarining tuzilish formulalarini rus olimi M.A.Rozanov taklif qilgan.


Sintetik usul bilan sut kislota olinganda o'ngga va chapga buruvchi kislotalarning teng miqdoridagi aralashmasi hosil bo'ladi. Bu aralashma rasemat deb ataladi.

Gidroksikislotalar galoidkislotalardan, oksokislotalardan, to'yinmagan kislotalardan olinadi. Xossalari jihatidan gidroksikislotalar ham spirtlarning ham kislotalarning xossalari namoyon qiladi. α -, β -va γ -gidroksikislotalarning bir-biridan farq qiladigan, o'ziga xos reaksiyasi ularni qizdirishda ko'rindi. α -gidroksikislotalar-laktidlar, β -gidroksikislotalar-to'yinmagan kislotalar va γ -gidroksikislotalar-laktonlarga aylanadi. M-n:



Sut kislotasi tabiatda uch xil shaklda uchraydi. L (+) sut kislotasi birinchi marta go'sht selidan ajratib olingan. (+, -) Sut kislotasi qatiqda, tuzlangan bodringda bo'lib, uglevodlarning sut achituvchi bakteriyalar ta'sirida achishidan hosil bo'ladi.

Sut kislotasi oziq-ovqat sanoatida, terilarni oshlashda va matolarni bo'yashda ishlatiladi. Olma kislotasi HOOC-CHOH-CH₂-COOH, vino kislotasi HOOC-CHOH-CHOH-COOH lar ham muhim gidroksikislotalardir. Olma kislotasi ham olmada, ryabinada, maxorkada bo'ladi. Vino kislotasi vinolarning achishi natijasida hosil bo'ladi. Uning kaliyli-natriyli tuzi NaKC₄H₄O₆ •4H₂O segnet tuzi nomi bilan kimyoviy analizda va radiotexnikada ishlatiladi. Limon kislotasi



limonda, maxorkada bo'ladi, glyukozaning maxsus bakteriyalar ta'sirida achishidan hosil bo'ladi. Oziq-ovqat sanoatida keng ishlatiladi.















Nazorat savollari

Izomeriyasi. Nomenklaturasi.

1. Monobrom valerian kislotaning barcha izomerlarini yozing va IYUPAK nomenklaturasi bo'yicha nomlang.

2. Quyidagi birikmalarning struktura formulalarini yozing: β -xlormoy kislota ammoniyli tuzi, xlorsirka kislotaning etil efiri, α -brommoy kislota amidi, α -xlorpropion kislota xlorangidridi, γ -bromvalerian kislota nitrili.

3. Quyidagi birikmalarni nomlang:



4. Sut kislota, vino kislota, β -oksimoy kislota amidi, γ -valerolakton, δ -valerolaktonlarning struktura formulalarini yozing.

5. Quyidagi birikmalarning tuzilish formulalarini yozing: β -aminomoy kislota, γ -aminovalerian kislota etil efiri xlorgidrati, α -aminopropion kislota amidi.

6. Oddiy aldegidokislotalar; α -, β - va γ -ketokislotalarga misollar yozing. Ularni nomlang.

7. Quyidagi birikmalarni struktura formulalarini yozing: a) pirouzum kislota nitrili; b) asetosirka kislota izopropilefiri; v) dimetilasetosirka efiri; g) formilsirka kislota etil efiri; d) γ -ketovalerian kislota oksimi.

8. a) Bir vaqtda α - va β -ketokislota; b) faqat β -ketokislota bo'la oladigan monoketodikarbon kislotalarga misollar yozing va ularni nomlang.

9. 2-oksipropanalni optik izomerlarini yozing.


10. Pentozaning optik izomerlarini yozing.

11. Glyukozaning ochiq zanjirdagi optik izomerlaridan 5 tasini yozing.


2-mashg'ulot. Oksokislotalar. Tuzilishi, izomeriyasi, nomlanishi, olinishi va xossalari. Aralash funksiyali birikmalar mavzusiga oid masalalar echish.

Oksokislotalar-tarkibida ham karbonil, ham karboksil guruh tutgan birikmalardir. Agar karbonil guruh al`degid guruhi bo'lsa al`degidokislotalar, karbonil guruh keton guruhi bo'lsa ketokislotalar bo'ladi.

Al`degid kislotalarga misol:




Oksoetan kislita, glioksil kislota




Formilsirka kislota, 3-oksopropan kislota

Keto- kislotalarga misol:




2-oksopropan kislota, pirouzum kislota

Al`degid kislotalarga misol;




glioksil kislota, oksoetan kislota




formilsirka kislota, 3-oksoprop'an kislota

Keto- kislotalarga misol:



pirouzum kislota, 2-oksopropan kislota,
 α -ketopropan kislota




β - ketomoy kislota, asetosirka kislota,
 3-oksobutan kislota


Bu moddalar ham karbonil birikmalar, ham karbon kislotalar kabi reaksiyaga kirishadi.

Oksokislotalar digaloidbirikmalarning gidrolizi natijasida yoki gidroksikislotalarning oksidlanishi natijasida olinadi.

β -Oksikislotalardan asetosirka kislotasi murakkab efir kondensasiyasi bilan olinadi:



Bu kislota yoki uning efiri-asetosirka efiri $-\text{CH}_2-$ guruhi tarkibidagi vodorodlar $>\text{C}=\text{O}$ va $-\text{COOR}$ guruhlari ta'sirida harakatchan bo'lib qoladi va ikki xil tautomerlar hosil qiladi:




keton shakl

yenol shaki

Shuning uchun uning eritmalari /eCl₃ eritmasi bilan kompleks hosil qilib rang beradi.

Asetosirka efiri asosida $-\text{CH}_2-$ guruhi hisobiga alkillash, asillash hamda dekarboksillash reaksiyalari o'tkazib juda ko'plab sintezlarni amalga oshirish mumkin



Asetosirka efiri ishqorlar ta'sirida kislota va keton parchalanishga uchraydi.

Nazorat savollari:

Gidroksikislotalar tuzilishiga ko'ra qanday bo'lishi mumkin. Misollar keltiring.

Giroksikislotalarga xos bo‘lgan fazoviy izomeriyani sut kislota misolida tushuntiring.

Molekuladagi asimmetrik uglerod atomining soniga qarab fazoviy izomerlar nechta bo‘ladi. Misollar keltiring.

Olma, limon, va vino kislotalarining formulalarini yozing. Ularning fazoviy izomerlarini ko‘rsating.

Gidroksikislotalarning olish usullariga misollar keltiring.

Olma, vino, limon kislotalarining ishlatalishiga misollar keltiring.

Keto-enol tautomeriyaga misollar keltiring.

Olinish usullari

1-variant

1. Sirka kislotaga xloring ta’siridan qanday birikmalar hosil qilish mumkin?


2. Propion kislotadan α -brompropion kislota hosil qiling. Reaksiya mexanizmini tushuntiring.

3. Nima uchun propion kislotaga yorug’likda xlor ta’siridan α - va β -xlorpropion kislota aralashmasi hosil bo‘ladi?

2-variant

1. Akril kislotadan β -brompropion va kroton kislotadan β -brommoy kislota hosil qilish reaksiya sxemalarini yozing.

2. Quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshiring:



3. α -Brompropion kislotani H_2O , KJ , NH_3 , KCH va C_2H_5ONa bilan reaksiyalarini yozing. Nima uchun α -brompropion kislota galogeni nukleofil o‘rin olish jarayonlarida faol atom hisoblanadi?

3-variant

1. 3 xil usulda glyukozani hosil qiling.
2. Barcha sizga ma’lum usullar bilan sut kislota hosil qiling.
3. a) Propion aldegid; b) α -xlormoy kislota; v) α -aminomoy kislotalar asosida α -oksimoy kislota hosil qiling.

4-variant

1. Reformatskiy reaksiysi bo'yicha β -oksivalerian kislota etil efirini hosil qiling.

2. γ -Bromkroton kislota metil efiri va asetaldegiddan Reformatskiy reaksiysi bo'yicha qanday birikma hosil qilish mumkin?

3. Etilendan vinokislota olish sxemasini taklif qiling.

5-variant

1. 3-oksipropanalni 3 xil usulda hosil qiling. Uni qizdirish natijasida qanday moddalar hosil bo'ladi?


2. 4-oksibutanalni hosil qiling. Uni qizdirilganda qanday moddalar hosil bo'ladi?

3. Oksietanalni hosil qiling. Uni qizdirilganda hosil bo'ladigan birikmani nomlang.

6-variant

1. Sanoatda D-ksilit va D-sorbit olishga asos bo'lgan reaksiyalarni yozing.

2. Quyidagi o'zgarishlarni to'ldiring:




3-mashg'ulot. Aminokislotalar. Nomenklaturasi. Tuzilishi.

Izomeriyasi. Olish usullari. Asosiy kimyoviy xossalari. Aminokislotalarning amfoter xossalari. α -, β -, γ -aminokislotalarning o'ziga xos xususiyatlari. Aminokislotalar mavzusi bo'yicha masalalar echish.

Aminokislotalar-molekulasi tarkibida ham amino-(NH₂), ham karboksil -(COOH) guruhi bo'lgan moddalardir. Oqsillar esa turli xil α -aminokislotalarning qoldiqlaridan tashkil topgan yuqorimolekulyar polipeptid birikmalardir. Oqsillar tirik hayotning asosi bo'lib murakkab tuzilishga egadir.

Aminokislotalar tarkibidagi 2 ta funksional guruhning bir-biriga nisbatan joylashishiga qarab α -, β - va γ -aminokislotalar bo'ladi. M-n:



Aminokislotalar tarkibida asimmetrik uglerod atomi bo‘lganligi uchun ularga ham optik izomeriya xosdir. Ular ham qutblangan nurni o‘ngga (+) yoki chapga (-) buradi. D âà L qatorlarga bo‘linadi.


Oqsil tarkibiga kiruvchi α -aminokislotalar o‘ziga xos nomlarga ega. M-n:




Aminokislotalar ham aminlarning, ham karbon kislotalarning xossalariiga ega. Ular odatda, ichki tuz shaklida bo‘ladi va shuning uchun suvda eruvchan, kristall moddalardir.

Oqsillar tarkibiga 20 taga yaqin α -aminokislotalar kiradi. Bu aminokislotalarning bir qismi organizmda sintez bo‘ladi, bir qismi esa tayyor holda ovqat bilan organizmgaga kirishi kerak. Organizm uchun zarur bo‘lgan, ammo organizmda sintez bo‘lmaydigan α -aminokislotalar almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar deyiladi.

Aminokislotalarni olish usullari ham aminobirikmalar va karbon kislotalarni olish usullariga o‘xshash. M-n α -aminokislotalarni α -galogenkislotalardan va al`degidlardan quyidagi reaksiyalar yordamida olish mumkin:



ω -Aminokapron kislotasi kaprolaktamni gidroliz qilib olinadi:




β -Aminokislotalar to‘yinmagan kislotalarga ammiak biriktirib olinadi:




α -, β -va γ -aminokislotalar bir-biridan qizdirish vaqtida qanday moddalarga aylanishi bilan farq qiladi.


Bunda α -aminokislotalar diketopiperazinlar, β -aminokislotalar - to‘yinmagan kislotalar va γ -aminokislotalar esa laktamlar hosil qiladi:



α -Aminokislotalar qizdirilganda ochiq zanjirli oligopeptidlar yoki polipeptidlар hosil bo‘lishi mumkin. Umuman, aminokislotalar amfoter birikmalar bo‘lib, asoslar bilan ham, kislotalar bilan ham reaksiyaga kirishib tuzlar hosil qiladi. Ular aminoguruh hisobiga va karboksil guruh hisobiga alohida reaksiyalarga kirishadi. M-n, nitrit kislota ta’sirida α -aminokislotalar diazobirimkmalarga aylanadi. Odatda bu reaksiyada aminokislota efiridan foydalaniladi:



Aminokislotalar og’ir metallarning ionlari bilan kompleks birikmalar hosil qiladi, M-n:



Suvda eruvchan komplekslar hosil qiluvchi aminokislotalar kompleksonlar deb ataladi. Eng muhim kompleksonlardan biri etilendiamintetrasirka kislota(trilonB)dir:



Nazorat savollari:

1. Aminokislotalar necha turli bo‘ladi. Misollar keltiring.

2. α -, β -va γ -aminokislolar bir-biridan qaysi reaksiya bilan farqlanadi.

3. qanday aminokislolar almashtirib bo‘lmaydigan aminokislolar deyiladi. Ularga misollar keltiring.

4. Shtrekker-Zelinskiy usuli bo‘yicha α -aminokislolar qanday olinadi. Reaksiya tenglamasini yozing.

Misol va masalalar.

1-variant

1. Tegishli α -galogenalmashgan kislotadan α -aminomoy kislotasi hosil qiling. Jarayon vaqtida qanday qo‘sishimcha mahsulotlar hosil bo‘lishi mumkin?

2. Tegishli aldegiddan α -aminomoy kislotasi olish sxemasini yozing.

3. Radionov usulida β -aminomoy kislotasi hosil qiling.

2-variant

1. ω -Aminoenant kislotasi $H_2N-(CH_2)_6-COOH$ sun’iy tola «enant» olishda ishlatiladi. Etilenni to‘rtxlorliuglerod bilan telomerlanish reaksiyasidan foydalanib ω -aminoenant kislotani hosil qiling.

2. a) Sirka kislotasi; b) etilenglikol asosida glioksil kislotasi hosil qiling.

3. a) Sirka va b) propion kislotalaridan foydalanib pirouzum kislotasi sintez qilish sxemasini yozing.

3-variant

1. Etilasetatdan asetosirka efiri oling.

2. Tegishli monokarbon kislotalar asosida: a) asetosirka kislotasi izopropil efiri; b) α -n-butirilmoy kislotasi etil efiri hosil qiling.

3. Klyayzen murakkab efir kondensatlanish mexanizmini izohlang va quyidagi savollarga javob bering:

1) nima uchun kondensatlovchi agent sifatida kuchli asoslar, masalan spirtning metall tuzlaridan foydalaniladi:

2) barcha oraliq bosqichlar qaytar va muvozanat kuchli chapga siljigan bo‘lishiga qaramasdan murakkab efirlanish kondensasiyasini nima uchun amalga oshadi?

3) spirtni xaydab turish yoki natriy alkogolyatni yanada kuchliroq kondensatlovchi agent ($NaNH_2$, NaH) ga almashtirish natijasida β -ketoefir hosil bo‘lish unumi nima sababdan ortadi?

4-variant

1. Etilasetat va etilpropionat qizdirilishidan qanday birikmalar hosil bo‘ladi?

2. Shavel kislota dietilefiri va etilasetatni o‘zaro murakkab efirlash kondensatlanish reaksiya sxemasini yozing. Reaksiya mexanizmini tushuntiring.

3. Diketendan asetosirka efiri hosil qiling. Sanoat usulining reaksiya sxemasini yozing.

Xossalari

5-variant

1. Gliserin aldegidning fenilgidrazoni va ozozonini hosil qiling.

2. 4-Oksibutanal ishqor ishtirokida izomerlanganda qanday modda hosil bo‘ladi?

3. d (+), l (-) va D va L-izomerlar nimasini bilan farq qiladi?

6-variant

1. Mutoratsiya hodisasi nima?

2. Glyukozadan foydalanib fruktozani hosil qiling.

3. Fruktozadan qanday qilib glyukoza olish mumkin?

7-variant

1. Glyukozid gidroksili nima? Uni qolgan gidroksillardan qanday ajratish mumkin?

2. Agar reaksiya unumi 60 % bo‘lsa, 120 gr glyukozadan necha gramm etil spiriti hosil bo‘ladi?

3. Glyukozaning fenilgidrazoni va ozazonini hosil qiling.

4. Fruktozani sirka angidrid bilan reaksiyasini yozing.

19-AMALIY MASHG‘ULOT. Geterotsiklik birikmalar. Besh va olti a’zoli geterotsikllar. Tuzilishi, olinni o‘rganish.

Dars maqsadi: Besh a’zoli bir geteroatomli geterotsiklar, furan, tiofen, pirrol, indollar. Tuzilishi, olinishi va xossalari. Olti a’zoli geterotsiklik birikmalar. Piridin va uning hosilalari. Tuzilishi. Asoslik xossalari. Olinish usullari va xossalarini o‘zlashtirish . Geterotsiklik birikmaalr mavzusi yuzasi bo‘yicha masalalar echish.

a) Geterohalqali birikmalar

Geterohalqali birikmalar deb, halqasi uglerod va getero atomdan tashkil topgan birikmalarga aytildi.

Tabiatda uchraydigan birikmalar tarkibida asosan geteroatom sifatida kislород, azot va oltingugurt atomlari ishtirok etadi.

Geterohalqali birikmalar tarkibida atomlarning umumiy soni uch, to‘rt, besh, olti va undan ko‘p bo‘lishi mumkin. Lekin eng barqaror


geterohalqali birikmalar besh va olti a`zoli bo`lib, bular tabiiy birikmalar orasida keng tarqalgan.

Geterohalqali birikmalarni 1)atomlarning umumiyligi soniga; 2)geteroatomlar soniga; 3)halqalarning soniga qarab sinflashtiriladi.


Geterohalqali birikmalarni nomlashda esa halqani tashkil qiluvchi molekula atomlarini nomerlash geteroatomdan boshlanadi.

Besh a`zoli geterohalqali birikmalar


Eng muhim besh a`zoli geterohalqali birikmalar furan, tiofen va pirrol bo`lib, bularning molekulasi mos ravishda halqada kislorod, oltingugurt va azot atomiga ega:



furan




tiofen




pirrol

Bu birikmalarni tuzilishi bir-biriga yaqinligini ko`rsatib turibdi. Haqiqatdan ham Yu.K.Yur`ev ularni bir-biriga aylanishi mumkinligini ko`rsatgan. Buning uchun u furan bug'larini vodorod sul`fid yoki ammiak bilan aralashmasini Al_2O_3 dan 400-450°C da o'tkazib tiofen yoki pirrol hosil bo`lishini ko`rsatgan:



Furan, tiofen va pirrolning qo'sh bog'lari elektronlari geteroatomlarning π -elektronlari bilan ta`sirlashib, yagona π -elektronlar sistemasini hosil qiladi. Natijada bu moddalarga aromatik xususiyatni namoyon qiladi. Shuning uchun ular elektrofil o'rinni olish reaksiyalariga oson kirishib (nitrolash, galogenlash va sul`folash) tegishli hosilalarni beradi:



Nazorat savollari:

1. quyida nomlari keltirilgan birikmalarning tuzilish formulalarini yozing.

- | | |
|------------------|--------------------------|
| a) α-metilfuran | b) 2-brom-4-metilfuran |
| v) furfurol | g) 5-nitrofurfurol |
| d) N-metilpirrol | e) α-tiofensul`fokislota |

2. Pirrol, tiofen va furanning aromatiklik xossalarni tushuntiring.




3. Pirrol, tiofen va furanning gidrogenlanish reaksiyalarini yozing.







4. Furan, pirrol va tiofenni nitrolash, asetillash va bromlash reaksiyalarini yozing.

Nomlanishi

1-variant

1. Quyidagi birikmalarni nomlang:





2. Quyidagi birikmalarning struktura formulalarini yozing: a) benzo-furan; b) benzotiofen; v) indol; g) pirazin; d) imidazol.

3. Aromatik geterosiklik birikma hosil bo‘lishida qaysi element atomlari (geteroatom) ishtirok etishi mumkin.


Olinishi

2-variant

1. Furan, tiofen va pirrollarni umumiyl olinish usullariga misollar keltiring.


2. Qahrabo dialdegididan furan va pirrol sintez qiling.

3. Quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshiring:



3-variant

1. Quyidagi o‘zgarishlar natijasida qanday birikma hosil bo‘ladi:






2. Furan, tiofen va pirrollarni Yu.K. Yurev usulida bir-biridan hosil bo‘lish reaksiya sxemasini yozing.

3. 2,5-Geksandionga suvni tortib oluvchi vositalar ta’sir ettirilganda qanday birikma hosil bo‘ladi.

4-variant

1. Tegishli asiklik birikmalardan quyidagi furan, tiofen va pirrol hosilalarini sintez qilish sxemalarini yozing.



2. Furfurolni sanoatda olish usulining sxemasini yozing.
3. Quyidagi birikmalarni tuzilishini va xossalariini taqqoslang: a) furan va tetragidrofuran; b) pirrol va dietilamin; v) tiofen va dietilsulfid.
4. Nima uchun furan, tiofen va pirrollarda elektrofil o‘rin olish aksariya α -holat hisobiga amalga oshadi.

Biofaol geterotsiklik birikmalar. Ulardan xalq xo‘jaligida foydalanish muammolari. Organik kimyo va ekologiya muammolari. Sanoat chiqindilari va undan olinadigan mahsulotlar. Kimyoviy reaktivlarning zararlilik ko‘rsatkichlari. mavzusi yuzasi bo‘yicha masalalar echish.Pestitsidlarning turlari, olinish usullari va ishlatilish sohalari. Ularning ayrim vakillari.

Xalq xo‘jaligida begona o‘simliklarni, zarur oziq-ovqat mahsulotlari olinadigan o‘simliklarni zararkunandalardan (tirik organizmlardan, zararkunandalar, yovvoyi o‘tlar, parazitlar, o‘simliklar kasalliklariga qarshi kimyoviy kurash) ximoya vositalari – **pestitsidlardir**.

O‘zR FA «O‘simlik moddalari kimyosi» institutida biologik faol pestitsidlarni (lotincha pestisis- ablax, va caedo- o‘ldiraman) olish va ularning xossalariini o‘rganish bo‘yicha bir necha yillardan buyon ilmiytadqikot ishlari olib borilmoqda. Pestitsidlarning ko‘p qismi qishloq xo‘jaligida o‘simliklarni kimyoviy himoya qilishda ishlatiladi. SHuningdek, turli yuqumli kasalliklarni asoschisi bo‘lgan bakteriyalarni yo‘q qilishda, inshootlardagi va omborlardagi zarali tirik organizmlarni (kalamush, sichqon, kanna, suvarak, chivin, pasha va turli zararli xasharotlar) yo‘qotishda ishlatiladi. Bu kabi kimyoviy ximoya vositalari insonlarning sog’lom hayot faoliyatida, dalada etishtiriladigan mahsulotlarning unumdon bo‘lishida katta ahamiyatga egadir.

Turli tirik organizmlarga o‘ziga xos ta’sir qilish xususiyatiga qarab pestitsidlarning quyidagi guruhlari mavjud:

Fungitsid va bakteritsidlar - o‘simtalar va bakteriya kabi tirik organizmlarga nisbatan faol moddalardir. Zambrug’ kasalligini yo‘qotishda ishlatiladi. Qishloq xo‘jaligida hosildor o‘simliklarni kasallanishiga qarshi kurashda ishlatiladi. Bakteritsidlar toksik moddalar bo‘lmagani uchun konservalash sanoatlarida (masalan, pentaxlorfenol), meditsinada va boshqa sohalarda ishlatiladi.

Insektitsidlar - zarur pestitsidlar hisoblanadi. Ular zararkunanda-lar va ularning lichinkalarini yo‘qotishda ishlatiladi.

Repellentlar – insektitsidlardan farq qilib, ular zararkunandalarni faqat qo‘rqitish xususiyatiga ega (masalan: pasha, chivinlarni).

Gerbitsidlar va defoliantlar - o‘simliklarga ta’sir qiluvchi pestitsidlardir. Gerbitsidlar begona o‘simliklarga qarshi ishlatiladi. Defoliantlar o‘simlik bargini tushirishda (paxta terishni osonlashtirishda) ishlatiladi.

Zootsidlar - issiq qonli zararkunandalar (kalamush, sichqon, ko‘rsichqonlar) ga qarshi ishlatiladi.

Pestitsidlarga bo‘lgan asosiy talab – o‘ta ehtiyyotkorlik bilan tanlab va me’yorida ishlatishdir. Chunki gerbitsidlarni me’yorida ishlatish kerakli o‘simliklardan olinadigan mahsulot unumdarligiga ijobiy ta’sir qiladi. Shuningdek, pestitsidlarlarga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri shuki, ularning (toksikligiga) zaharlilik darajasi tirik organizm- odamlar, parrandalar va uy hayvonlariga nisbatan deyarlik kam bo‘lishi kerak. Pestitsidlar ichida bir qancha organik birikmalar mavjud. Ularga xlorli, azotli va oltingugurt saqlagan birikmalar, shuningdek fosfor kislotalari hosilalari kiradi. Eng ko‘p tarqalgan pestitsid moddalarga halqali organik birikmalarning galogenli hosilalari, triazinlar, karbamidlar, fosforoorganik birikmalar, nitrillar va boshqalar kiradi. Hozirgi vaqtida bu birikmalarning turlari juda ham oshib bormoqda. Chunki bu birikmalarning bir turini uzoq vaqt ishlatish natijasida organizmda shu moddalarga moslanuvchanlik immuniteti yuzaga keladi. Shu maqsadda ularning boshqa turlarini yaratish zaruriy choralar hisoblanadi.

Gerbitsidlar.

Gerbitsidlar (*gerbitsid* lotincha so‘z bo‘lib, *herbo-* o‘simlik va caedo-o‘tlarni nobud qiluvchi degan ma’noni bildiradi) – begona yovvoyi o‘tlarni yo‘qotishda o‘simliklarga purkab (eritmali), changlatib (quruq moddalari) yoki tuproqqa solib ishlatiladigan kimyoviy moddalardir. Yalpi ta’sir qiluvchi gerbitsidlar bor. Temir yo‘l ko‘tarmalarida va aerodromlarning uchish va qo‘nish yo‘laklarida hech qanday o‘simlik bo‘lmasligi kerak. Chunki bu avariya holatlariga sababchi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bunday sharoitlarda shu kabi gerbitsidlar ishlatiladi. Qishloq xo‘jaligida esa tanlab ta’sir qiluvchi, begona o‘tlarni yo‘qotib madaniy o‘simliklarni nobud qilmaydigan va o‘sishiga ta’sir qilmaydigan gerbitsidlar zarur bo‘ladi. Masalan shunday moddalardan biri diuron moddasining 1,2-1,6 kg miqdori (mochevinaning hosilasi) dalani begona o‘tlardan bir davomida saqlaydi. Gerbitsidlar ta’sir qilish qobiliyatiga ko‘ra 3 xil bo‘ladi: sirtdan, singib va ildizdan ta’sir etadigan turlari mavjud.

Insektitsidlar.

Zararli hasharotlarni qirish uchun ishlatiladigan moddalar. Bunday hasharotlar insonning eng ashaddiy dushmani ekanligi qadimdan ma'lum. Zararli hasharotlar nobud qilgan g'allaning miqdori dunyo bo'yicha yiliga millionlab tonnani tashkil etadi. Bularga qarshi kurashish uchun insektitsidlar kerak bo'ladi (lotincha «*insektum*» -hasharot, «*tsaedo*»-o'ldiraman degan ma'nolarni anglatadi).

Insektitsidlar kukun, suyuqlik, emul'siya, suspenziya va aerozol holida qo'llaniladi. Zararli hasharotlarga ta'sir ko'rsatish xarakteriga qarab, insektitsidlar ichak, nafas, teri (kontakt insektitsidlar), ildiz va barg orqali (sistemali insektitsidlar) ta'sir qiluvchilarga bo'linadi. Ichak orqali ta'sir qiluvchi insektitsidlar zararkunandalar organizmiga og'izdan tushadi; nafas orqali ta'sir i insektitsidlar (fumigantlar) esa hasharotlarning nafas yo'lidan, teri orqali ta'sir qiluvchilar esa terisidan kiradi. Eng samaralisi o'simlik orqali ta'sir qursatadigan sistemali insektitsidlardir. Ular oziq moddalar bilan birga ildiz va barg orqali so'rilib, o'simlikning o'zini xasharotga nisbatan zaharli qilib qo'yadi. Masalan, metilmerkaptوفos va fosfamid shular jumlasidandir.

Gerbitsidlar ta'sir qilish xususiyatiga qarab 2 guruhg'a bo'linadi:

1. Selektiv ta'sir qiluvchi – ma'lum zararli o'simlikka tanlab ta'sir qiluvchi birikmalar.
2. Yoppasiga ta'sir qiluvchi birikmalar, masalan, botqoqliklardagi va qo'nish maydonlaridagi o'suvchi o'simliklarni yo'qotuvchi moddalar.

Pestitsidlarga qo'yiladigan talablar:

1. Odamga va uy xayvonlar va parrandalarga nisbatan havfsizligi va zararli tirik organizmlarga (o'simlik va hayvon) nisbatan faolligi.
2. Ishlatilgandan so'ng bezarar moddalarga oson parchalanib ketishi (metabolizm) kerak.

Moddalarning o'rtacha zaharlilik darajasi LD₅₀ (O'ZD) kattaligi bilan belgilanadi. O'ZD – bu ma'lum preparatning 1 kg tirik organizmni zaharlab o'ldirish ta'sirining 50% ga teng qiymatdir. Masalan, LD₅₀ = 1 mg/kg tirik organizm bo'lsa, ular o'ta yuqori zaharli ta'sir qiluvchi moddalardir.

LD₅₀ mg/50 - 100 kg bo'lsa yuqori zaharli moddalar

LD₅₀ mg/ 200 – 1000 kg bo'lsa o'rta zaharli moddalar

LD₅₀ mg/ 1000 ≤ kg bo'lsa kam zaharli moddalardir.

O'simliklar organizmida kimyoviy moddalar vaqt o'tishi bilan o'z tuzilishini o'zgartiradi. Bu holat – metabolizm deyiladi. Masalan, agar

dastlabki modda benzol bo'lsa, o'zgarishdan hosil bo'lgan moddalar (fenol, xinon kabilar) metabolitlar deyiladi.

3. Pestitsidlar saqlanayotgan idishlarga ta'sir qilmaydigan, yonmaydigan, portlamaydigan bo'lishi kerak. Ular quyidagi shaklda bo'lishi kerak: a) kukun (dispersligi yuqori) holatda; b) granula (sharsimon) holatda; v) suvli eritma holatda.
4. Pestitsidlar suvda eruvchan bo'lishi kerak. Masalan, suvda erimaydigan pestitsidlar suvda eriydigan polimerlar bilan suvli eritma hosil qiladilar.
5. Ular aerozollar va tuman holatida bo'lishi kerak.
6. **Akaritsidlar** – [grekchadan akari – kana, lotincha caedo – o'ldiraman] – kimyoviy faol modalar bo'lib, qishloq xo'jaligi o'simliklari va hayvonlar zararkunandalari bo'lmish kana, kolorado qo'ng'izi, chivinlar kabilarni yo'qotishda ishlatiladi.
7. **Al'gitsidlar** – [lotincha alga – dengiz o'ti, o'simligi va caedo – qiraman, o'ldiraman], gerbitsid moddalar bo'lib, suv saqlanadigan joylarda, katta kanallarda suv o'tlarini yo'qotishda ishlatiladi.
8. **Antiseptiklar** – [anti – va grekcha ceptikös- yiringlagan], yara yiringlashining oldini olish va infektsiyalangan erni biologik faol moddalar ta'sirida davolash (1867 yilda ingliz olimi Jorj Lister tomonidan taklif qilingan).
9. **Desikantlar** – [lotincha desicco- quritaman], pestitsid moddalar bo'lib, o'simliklarni quritishda ishlatiladi. Bu esa mahsulotni yig'ib olishni engillashtiradi. Bunday moddalar paxta, guruch, kartoshka kabilarni desikatsiyalashda ishlatiladi.
10. **Defolianlar** – [de- va lotincha folium – barg], pestitsid moddalar bo'lib, hosildor o'simliklar bargini yig'im-terimdan avval quritib tushirib yuborishda ishlatiladi. Masalan, paxta defoliyatsiyasi.
11. **Zootsidlar** –[zoo- va lotincha caedo – o'ldiraman so'zlari], pestitsid birikmalar bo'lib, asosan kemiruvchi umurtqa pog'onalilarga (rodentsidlar, ratitsidlar) qarshi va zarar keltiruvchi qushlarga (avitsidlar) qarshi ishlatiladi.
12. **Insektitsidlar** – [lotincha insectum – zararli hashorot va caedo - o'ldiraman], qishloq xo'jaligi o'simliklar zararkunandalariga qarshi ishlatiladigan kimyoviy faol moddalar. Bularga antifidantlar (repellentlar), attraktantlar (lotincha attraho – o'zimga tortaman, zararkunandalarni o'zining hidiga rom qilib qo'yuvchilar), xemesterilizatorlar (pestitsid modda) kiradi.

Nazorat savollari.

1-variant

1. Pestitsidlar qanday moddalar va ularning turlari necha xildan iborat?

2. Gerbitsid, akaritsid, zootsil, fungitsid – kabi moddalar nimalarga qarshi ishlatiladi?

3. Repellent, desikant, algitsid va bakteritsidlargi misollar keltiring, ular nima uchun ishlatiladi?

2-variant











1. Defolyant, desikant, feromoglar qanday moddalar, ular nimalarga qarshi ishlatiladi?

2. Galoid-, nitro-, amino- va hidroksi- guruhi tutgan birikmalarning pestitsid faolligi nimadan iborat?

3. Karbonil birikmalar va karbon kislotalar va ularning hosilalari pestitsid sifatida qanday maqsadlarda ishlatiladi?

3-variant

1. Quyidagi formulalari keltirilgan pestitsid birikmalarni nomlang va ularni pestitsidlarning qaysi guruhlariga kirishini aniqlang:




2. Pestitsidlarning o‘rtacha zaharlilik darajasi (LD_{50}) va ularning metabolizmi nimani bildiradi?

3. Quyidagi birikmalarni monosulfolash uchun qaysi sulfolovchi reagent (qo‘rg’oshin, 85%- H_2SO_4 yoki piridinsulfotrioksid) lardan foydalanish mumkin; a) benzol; b) tiofen; v) pirrol; g) furan. Reaksiya sxemalarini yozing va javobingizni izohlang.


3-variant

1. Quyidagi elektrofil o‘rin olish reaksiya sxemalarini yozing: a) furanni azot kislotasi va sirka angidridi ishtirokida nitrolash; b) tiofenni bromlash (erituvchi benzol ishtirokida); v) pirrolni fenildiazoniy xlorid bilan azoqo‘shish.

2. Tegishli geterosikllardan quyidagi birikmalarni hosil qiling.



3. Quyidagi o‘zgarishlarni to‘ldiring.



4-variant

1. Furfurol asosida quyidagi birikmalarni hosil qiling:



2. Pirrolni furan bilan kimyoviy o‘xshashligini misollar orqali ko‘rsating.

3. Pirrol asosida; a) α - pirrolaldegid; b) α - pirrolkarbon kislota; v) α - metilpirrol; g) N- asetilpirrol hosil qiling.

5-variant

1. Qaysi besh a’zoli geterosiklik birikmada (furan, tiofen yoki pirrol) tutash qo‘shbog’li dienlarning xossalari kuchli. U uchun malein angidrid bilan Dils-Alder reaksiya sxemasini yozing.

2. Furan, tiofen va pirrollarni qisman va to‘liq qaytarish reaksiyalarini yozing. Reaksiya mahsulotlarini nomlang.

3. Indolni sun’iy yo‘l bilan qanday olish mumkin? Indol va pirrolning kimyoviy xossalari taqqoslang.

6-variant

1. Fisher usulida α - metilpiridin sintez qilish sxemasini yozing.

2. Quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshirish natijasida qanday birikma hosil bo‘ladi:



3. Quyidagi birikmalarning Fisher usulida ta'sirlashuvidan indolning qanday xosilalarini olish mumkin: a) metiletiketon va 2, 4 - dinitrofenilgidrazin; b) aseton va n-nitrofenolgidrazin; v) siklogeksanon va fenilgidrazin.

7-variant

1. Indolga ketma-ket etil magniybromid va asetilxlorid ta'siridan qanday birikma hosil bo'ladi?

2. Pirrol, indol va karbazolning kislotalik xossalarini taqqoslang.



3. Benzol va piridinning tuzilish va xossalaridagi o'xshash va farqli tomonlari ko'rsating.

8-variant

1. a) Piridin bisulfit; b) piridin xlormetilat; v) piridinsulfotrioksid; g) N-oksipiridinlar olish sxemalarini yozing.

2. Pirrol va piridinga sovuqda kuchli kislotalarning ta'sirini taqqoslang. Nima uchun bu sharoitda pirrolga xos smola hosil bo'lishi piridin bilan kuzatilmaydi?

3. Quyidagi o'zgarishlarni to'ldiring:



9-variant

1. Piridinining: a) sulfolash; b) nitrolash; v) xlorlash reaksiyalarini yozing.

2. N-oksipiridinni nitrolash sxemasini yozing. Reaksiya mexanizmini tushuntiring.

3. Piridindan 4-nitropiridin hosil qiling.

10-variant

1. Piridinni quyidagi birikmalar bilan reaksiyalarini yozing: a) $NaNH_2$; b) KOH ; v) CH_3Li .

2. Piridin asosida: a) β -brompiridin; b) nikotin kislota hosil qiling.

3. Barcha izomer aminopiridinlarni hosil qiling. Ularni azot kislotasi bilan reaksiyalarini yozing. Bu aminlardan qaysi biri barqaror diazobirikma hosil qiladi?

11-variant

1. a) Elektrofil o‘rin olish reaksiyasiga piridindan oson kirishadigan hosilasini; b) α -xlorpiridinda faol xlori bo‘lgan hosilasini; v) beqaror diazoniy tuzini hosil qiladigan aminopiridinni; g) enol shaklda mavjud bo‘la oladigan oksipiridinlarga misollar keltiring.

2. Kumush ko‘zgu reaksiyasiga kirisha oladigan va bunda $C_5H_3ClO_3$ tarkibli birikma hosil qiladigan va bu birikmaning qizdirilishidan α -xlorfuran hosil bo‘ladigan $C_5H_3ClO_2$ tarkibli birikmaning struktura formulasini aniqlang.

3. Quyidagi xossalarni takrorlaydigan C_6H_6OS tarkibli birikmaning tuzilishini aniqlang: 1) kumush oksidining ammiakdag‘i eritmasi bilan reaksiyaga kirishadi. Natriy gipoxlorit ta’sirida α -tiofenkarbon kislota hosil qiladi.


12-variant

1. Gidrolizidan suksinimid hosil qiladigan C_4H_3ClN tarkibli birikmaning tuzilishini aniqlang.

2. Sr_2O_3 yordamida oksidlanishidan 8-xinolin karbonkislota hosil qiladigan $C_{11}H_{11}N$ tarkibli birikmaning struktura formulasini aniqlang.

3. Ketma-ket qaytarilishi va azot kislotasi bilan ta’sirlashishidan 4-piridon hosil qiladigan $C_5H_4N_2O_2$ tarkibli birikmaning struktura formulasini yozing.


4. Quyidagi o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘ladigan birikmalarni nomlang:





20-AMALIY MASHG'ULOT. Uglevodlarning turlari, tuzilishi, olinishi va xossalari. Sinflanishi. Monozlar. Aldoz va ketozlar. Tuzilishi. Optik izomeriyasi. Tabiatda uchrashi. Olinish usullari va xossalari. Di- va oligosaxaridlar. Qaytarilmaydigan va qaytariluvchi disaxaridlar. Tregadoza, maltoza, saxaroza. Tuzilishi va xossalari. Uglevodlar mavzusiga doir masalalar echish.


Uglevodlar -«uglerod» va «voda» so‘zlaridan tuzilgan, umumiy formulasi ko‘pincha $C_n(H_2O)_m$. Uglevodlar monosaxaridlarga, di- va oligosaxaridlarga, polisaxaridlarga bo‘linadi.

Ular tabiatda keng tarqalgan moddalar bo‘lib, o‘simpliklarning, mevalarning tarkibida bo‘ladi. Monosaxaridlar gidrolizga uchramaydigan qandsimon moddalardir. Tabiatda ko‘proq besh va olti uglerodli monosaxaridlar pentoza va geksozalar uchraydi. M-n, pentozalar-ksiloza, arabinoza, riboza va h.k. geksozalar-glyukoza, fruktoza, mannoza va h.k.




Ularning tarkibidagi 1 ta uglerod al`degid yoki keton guruhini o‘zida tutadi, qolgan uglerod atomlarida esa 4 ta yoki 5 ta hidroksil guruhlari bo‘ladi. M-n, ribozaning tuzilish formulası quyidagicha:






Keltirilgan birikmalarning ichida riboza, 2-dez-oksiriboza, glyukoza-al`dozalardir. Fruktoza esa -ketozadir. Ular ta`mi shirin moddalar bo`lib, uzumda va shirin mevalarda ko`p bo`ladi.

Monosaxaridlar ochiq uglerod zanjirli va yopiq (siklik) zanjirli tuzilishga ega bo`ladi. Buni D glyukoza misolida ko`rish mumkin:




Monosaxaridlar di- va polisaxaridlarni kislotalar yoki enzimlar katalizatorligida gidroliz qilib yoki ko`p atomli spirlarni oksidlab olish mumkin: $(\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5)_n + n\text{H}_2\text{O} \rightarrow n\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$

Monosaxaridlar suvda yaxshi eriydigan kristall moddalar bo`lib shirin ta`mga ega. Ularning tarkibida asimmetrik uglerod atomlari bo`lgani uchun ular optik faol birikmalardir. M-n, glyukoza ochiq formada 16 ta, yopiq formada esa 32 ta optik izomerlar shaklida bo`ladi. Kimyoviy jihatdan monosaxaridlar ham al`degid (yoki keton), ham ko`p atomli spirt xossalari namoyon qiladi. M-n monosaxaridlardagi al`degid guruhini qaytarib ko`p atomli spirt olish mumkin:




Oksidlanganda glyukon kislotasi hosil bo`ladi:



Glyukoza fenilgidrazin bilan al`degid guruh hisobiga fenilgidrazon va ozazon hosil qiladi.

Glyukozani metil yodid bilan metillab pentametilglyukoza (5 ta gidroksil guruh hisobiga pentametil oddiy efiri), sirka angidrid bilan asetillab pentaasetilglyukoza olish mumkin:




Glyukoza yoki boshqa geksozalar zimaza fermenti ta`siri ostida bijg'ib etil spirtini hosil qiladi:




Geksozalar spirtli bijg'ishdan tashqari aseton, butanol, limon kislotasi, sut kislotasi, moy kislotasi hosil qilib ham bijg'ishi mumkin. Bunda har bir jarayon uchun alohida ferment ishlataladi.

Pentozalardan lavlagi qandi arabinoza, somon va shulhada bo‘ladigan ksiloza va biologik ahamiyati katta bo‘lgan hujayra yadrosida bo‘ladigan ribozalarning tuzilishini keltiramiz:



Geksozalardan D-glyukoza, D-fruktoza, D-mannozalar formulalarini keltiramiz:




Glyukoza va fruktoza uzum va boshqa shirin mevalar tarkibida, mannoza esa arpada va apel'sin po'chog'ida bo'ladi. Glyukoza va fruktoza muhim ozuqa hisoblanadi.

Disaxaridlarda 2 ta monosaxarid qoldig'i bo'lib, u gidrolizga uchraganda 2 ta monosaxarid hosil bo'ladi. M-n, saxaroza gidrolizlanganda glyukoza va fruktoza monosaxaridlari hosil bo'ladi. Monosaxaridlar al`degidlar yoki ketonlar hamda spirlarning kimyoviy xossalarni o'zida namoyon qiladi. Disaxaridlar esa ko'p atomli spirlarga o'xshash xossalarga ega.

Polisaxaridlari. Shakarga o'xshamagan polisaxaridlari. Sellyuloza va kraxmal. Tuzilishi, olinishi va xossalari. Uglevodlar mavzusiga doir masalalar echish.


Polisaxaridlari. Polisaxaridlari-gidrolizlanganda juda ko'p miqdorda monosaxarid hosil qiladigan uglevodlarga aytildi. Bunday polisaxaridlardan kraxmal, sellyuloza va inulinni misol qilib keltirish mumkin.

Kraxmal-muhim ozuqa mahsuloti bo'lib, u α -D-glyukoza qoldiqlaridan tashkil topgan yuqori molekulyar birikmadir. Uning formulasini quyidagicha ko'rsatish mumkin:



Shuning uchun kraxmal gidrolizlansa α -D glyukoza hosil bo'ladi.

Sellyuloza esa yog'ochning tarkibiy qismi bo'lib, u β -D-glyukoza qoldiqlaridan tashkil topgan yuqori molekulyar birikmadir. Demak, uning elementar zvenosida β -D-glyukoza qoldig'i mavjud:




Sellyulozaning molekulyar massasi 20000000 dan yuqori, uning makromolekulasi chiziqli tuzilishga ega. Kraxmalning molekulyar massasi sellyulozanikidan kichikroq va tuzilishi tarmoqlangan bo‘ladi.

Kraxmal unda 74%, guruchda 78%, kartoshkada 16% bo‘ladi. Kraxmaldan ham, sellyulozadan ham gidroliz qilib glyukoza, glyukozadan esa bijg’itish bilan etanol olinadi:



Inulin deb ataluvchi polisaxaridning elementar zvenosida D-fruktoza qoldig’i mavjud. U topinambur o‘simligi ildizida ko‘p bo‘ladi.

Sellyulozadan gidroksil guruhiga kimyoviy reaksiyalar olib borib karboksimetilsellyuloza, asetilsellyuloza, nitrosellyuloza kabi muhim moddalar olinadi. M-n:



Nazorat savollari :

1. Uglevodlar qanday birikmalar va ular necha turli bo‘ladi.
2. Monosaxaridlardan treoza va tetrozalarga misollar keltiring. Ularning fazoviy izomerlari nechta.
3. D (+) gliserin al’degididan oksinitril sintezi yordamida D (+) glyukoza sintez qilish sxemasini tuzing.
4. Glyukozaning sut kislotali bijg’ish sxemasini tuzing.
5. Glyukozadan fenilgidrazin yordamida fruktoza olish reaksiya tenglamalarini yozing
6. D (+) glyukozaning va D (-) ribozaning yopiq zanjirli formulalarini yozing.
7. D (-) fruktozaning 5 va 6 a’zoli halqasimon formulalarini yozing.
8. Sellyulozadan karboksimetilsellyuloza qanday olinadi. Reaksiya tenglamasini yozing.

Mavzuga oid misol va masalalar

1-variant



1. Uglevodlar qanday birikmalar va ular necha turli bo‘ladi.
2. Monosaxaridlardan treoza va tetrozalarga misollar keltiring. Ularning fazoviy izomerlari nechta.
3. Glyukozaning sut kislotali bijg’ish sxemasini tuzing.

2-variant

1. Sellyulozadan karboksimetilsellyuloza qanday olinadi. Reaksiya tenglamasini yozing.
2. Kraxmaldan etil spirti olish sxemasini yozing.
3. Glyukoza va fruktozadan 1 mol suv tortib olinganda qanday modda hosil bo‘ladi?

3-variant

1. Quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshiring.




2. Quyidagi disaharidlardan qaysi biri qaytarilmaydigan disaharid hisoblanadi: maltoza, tregaloza.

3. Shakarning inversiyasi nima?

4-variant

1. Qanday qilib kraxmaldan glyukoza olish mumkin.
2. Quyidagilardan qaysi biri tola olishda ishlatiladi: sellyuloza nitrati, sellyuloza asetati, karboksimetilsellyuloza.
3. Quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshiring:



5-variant

1. α -, β - va γ -Xlorvalerian kislotalarning qizdirilishidan qanday kimyoviy o‘zgarish kuzatiladi? Mahsulotlarni nomlang.
2. Glikol kislotani: a) PCl_5 ; b) HBr ; v) HJ bilan reaksiyalarini yozing.
3. Oksimoy kislota misolida α -, β - va γ -oksikislotalarning qizdirilishi natijasida boradigan kimyoviy o‘zgarishlarni harakterlang. Hosil bo‘lgan mahsulotlarni nomlang.

6-variant

1. a) Sut kislota; b) α -oksimoy kislotalarning suyultirilgan kislotalar ishtirokida qizdirilishidan qanday birikmalar hosil bo‘ladi?
2. Na_2CO_3 suvli eritmasi bilan CO_2 hosil qilib ta’sirlashadigan, qizdirilishidan esa NCl ajralib chiqadigan C_4H_7ClO tarkibli birikmaning struktura formulasini yozing.
3. $C_5H_{10}O_3$ tarkibli birikma qizdirilishidan $C_5H_8O_2$ hosil qiladi. $C_5H_8O_2$ ning oksidlanishidan esa propion va shavel kislota aralashmasi hosil bo‘ladi. Boshlang’ich birikmaning struktura formulasini aniqlang.
4. Bromli suv va natriy bikarbonat eritmasi bilan ta’sirlashmaydigan, o‘yuvchi natriyning spirtdagi eritmasi bilan qizdirilishidan $C_4H_7O_3Na$ tarkibli tuz hosil qiladigan birikmaning $C_4H_6O_2$ strukturasini aniqlang.

II-qism yuzasidan masala va mashqlar

1. Anilin asosida quyidagi birikmalarni hosil qiling.

a) C_6H_5NHCHO b) $C_6H_5NHCOC_6H_5$ v) $C_6H_5NHSO_2C_6H_5$ g) $C_6H_5NHCOCOOH$





Ularni nomlang.

2. n-Toluidinni etil bromid bilan qizdirilishidan qanday birikma hosil bo‘ladi? Anilinni ortiqcha metil spirti bilan avtoklavda $230^{\circ}S$ qizdirilishidan hosil bo‘ladigan mahsulotni nomlang. Asosiy mahsulotni qo‘sishimchalardan qanday ajratish mumkin?


3. a) n-Anizidinni N-asillash, N-alkillash va N-arillash reaksiyalariga misollar yozing. Hosil bo‘lgan mahsulotlar qanday birikmalar sinfiga mansub hisoblanadi?

4. Quyidagi birikmalarning qaysi biri izonitrillash reaksiyasiga kirishadi: a) m-toluidin; b) N-butilanilin; v) dimetilanilin. Reaksiya sxemasini yozing.

5. Quyidagi o‘zgarishlar natijasida qanday birikmalar hosil bo‘ladi?



6. Quyidagi Shiffa asoslarini sintez qiling:



7. a) o-Toluidin; b) benzilamin; v) etilanilin; g) dimetilanilin; d) trietilaminlarning azot kislotasi bilan reaksiyasini yozing. Reaksiya mahsulotlarini nomlang.

8. a) Anilin; b) m-dinitrobenzol asosida m-nitroanilin oling. m-Nitroanilin hosil qilib uchun qaysi usul qulay hisoblanadi? Dimetilaminoguruh I-tur o‘rinbosari bo‘lib orto- va para- holatlarga yo‘naltiradi. Nima uchun dimetilanilinni nitrolashda (kons. H_2SO_4 ishtirokida) asosiy mahsulot m-nitrodimetilanilin hosil bo‘ladi?

9. Qanday qilib, anilindan n-nitroanilin olish mumkin?

10. Anilindan sulfanil kislota hosil qiling.


11. Anilindan n-bromanilin olish reaksiya sxemasini yozing?

12. Benzidin qayta guruhlanishidan 2,2-dimetoksi-4,4-diaminodifenil hosil qiladigan gidrazobirikmaning struktura formulasini yozing.

13. n-Izobutilanilin vodorod xloridli tuzi qizdirilishidan n-amino-uchlamchi-butilbenzol hosil bo‘ladi. Reaksiya sxemasini yozing.

14. Fenilgidrosilaminni H_2SO_4 ishtirokida ortiqcha miqdor: a) etil spirti; b) fenol; v) anilin bilan ta'sirlashishidan qanday mahsulotlar olinadi?

15. Quyidagi o'tishlarni amalga oshiring:



16. Difenilamindan n-nitrozodifenilamin hosil qiling.

17. a) Quyidagi azobo'yoqlarni sintez qilish sxemasini yozing qovoqrang metil (diazo - tashkil etuvchi n-fenilsulfokislota natriyli tuzi, azotashkil etuvchi n, n¹ - dimetilanilin) qizil metillar (diazotashkil etuvchi antronil kislota, azotashkiletuvchi N, N-dimetilanilin).

18. Quyidagi juft birikmalaridan hosil bo'ladigan azobo'yoqlarning struktura formulalarini yozing: a) 2,4-dinitroanilin va o-krezol; b) o-toluidin va fenol; v) n-aminoazobenzol va fenol.

19. Nima uchun 1,2-difeniletlen rangsiz 1,10-difenil 1,3,5,7,9-dekopentaen qovoq sariq rangga ega?

20. 4-Oksi-4'-dimetilaminoazobenzol misolida azobo'yoqlarni tuzilishini kimyoviy usul bilan aniqlash yo'llarini ko'rsating.


21. Qaytarish yo'li bilan parchalanishdan n-fenilendiamin hosil bo'ladigan azobo'yoqning struktura formulasini aniqlang.

22. Benzoldan metiloranj olish sxemasini yozing. Nima uchun metiloranj indikator sifatida ishlatiladi.

23. Kraxmaldan etil spirti olish sxemasini yozing.

24. Glyukoza va fruktozadan 1 mol suv tortib olinganda qanday modda hosil bo'ladi?

25. Quyidagi o'zgarishlarni amalga oshiring.









26. Quyidagi disaharidlardan qaysi biri qaytarilmaydigan disaharid hisoblanadi: maltoza, tregaloza.

27. Shakarning inversiyasi nima?

28. Qanday qilib kraxmaldan glyukoza olish mumkin.

29. Quyidagilardan qaysi biri tola olishda ishlatiladi: sellyuloza nitrati, sellyuloza asetati, karboksimetilsellyuloza.

30. Quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshiring:



31. α -, β - va γ -Xlorvalerian kislotalarning qizdirilishidan qanday kimyoviy o‘zgarish kuzatiladi? Mahsulotlarni nomlang.

32. Glikol kislotani: a) PCl_5 ; b) HBr ; v) HJ bilan reaksiyalarini yozing.

33. Oksimoy kislota misolida α -, β - va γ -oksikislotalarning qizdirilishi natijasida boradigan kimyoviy o‘zgarishlarni harakterlang. Hosil bo‘lgan mahsulotlarni nomlang.

34. a) Sut kislota; b) α -oksimoy kislotalarning suyultirilgan kislotalar ishtirokida qizdirilishidan qanday birikmalar hosil bo‘ladi?

35. Na_2CO_3 suvli eritmasi bilan CO_2 hosil qilib ta’sirlashadigan, qizdirilishidan esa NCl ajralib chiqadigan C_4H_7ClO tarkibli birikmaning struktura formulasini yozing.

36. $C_5H_{10}O_3$ tarkibli birikma qizdirilishidan $C_5H_8O_2$ hosil qiladi. $C_5H_8O_2$ ning oksidlanishidan esa propion va shavel kislota aralashmasi hosil bo‘ladi. Boshlang’ich birikmaning struktura formulasini aniqlang.

37. Bromli suv va natriy bikarbonat eritmasi bilan ta'sirlashmaydigan, o'yuvchi natriyning spirtdagi eritmasi bilan qizdirilishidan $C_4H_7O_3Na$ tarkibli tuz hosil qiladigan birikmaning $C_4H_6O_2$ strukturasini aniqlang.

38. $C_6H_{13}NO_2$ tarkibli birikma vodorod xlorid bilan oson tuz hosil qiladi, lekin natriy bikarbonat va azot kislotasi bilan reaksiyaga kirishmaydi. Ishqorning suvli eritmasi bilan qizdirilishidan $C_4H_8NO_2Na$ tarkibli tuz hosil qiladi. Birikmaning struktura formulasini aniqlang.

39. Harorat ta'siriga chidamli, oksim hosil qiladigan, kumush oksidining ammiakdagi eritmasi bilan ta'sirlashmaydigan, qaytarilishidan n-valerian kislota hosil qiladigan $C_5H_8O_3$ tarkibli birikmaning struktura formulasini aniqlang.


40. $C_8H_{14}O_3$ tarkibli β -ketoefirning strukturasini aniqlang, agar suyultirilgan kislota ishtirokida qizdirilishidan dietilketon hosil qilsa, bu efirni murakkab efir kondensatlanishi orqali hosil qiling.

41. $C_7H_{12}O_3$ tarkibli birikma soda eritmasi bilan ta'sirlashmaydi va temir-(III)-xlorid bilan reaksiyaga kirishmaydi. Konsentrangan ishqor bilan qizdirilishidan hosil bo'ladigan mahsulotlarning biri izomoy kislota hisoblanadi. Birikmaning struktura formulasini aniqlang.


42. Quyidagi birikmalarni monosulfolash uchun qaysi sulfolovchi reagent (qo'rg'oshin, 85%- H_2SO_4 yoki piridinsulfotrioksid) lardan foydalanish mumkin; a) benzol; b) tiofen; v) pirrol; g) furan. Reaksiya sxemalarini yozing va javobingizni izohlang.

43. Quyidagi elektrofil o'rinni olish reaksiya sxemalarini yozing: a) furanni azot kislotasi va sirka angidridi ishtirokida nitrolash; b) tiofenni bromlash (erituvchi benzol ishtirokida); v) pirrolni fenildiazoniy xlorid bilan azoqo'shish.



44. Tegishli geterosikllardan quyidagi birikmalarni hosil qiling.



45. Quyidagi o'zgarishlarni to'ldiring.



46. Furfurol asosida quyidagi birikmalarni hosil qiling:



47. Pirrolni furan bilan kimyoviy o‘xshashligini misollar orqali ko‘rsating.

48. Pirrol asosida; a) α - pirrolaldegid; b) α - pirrolkarbon kislota; v) α - metilpirrol; g) N- asetilpirrol hosil qiling.

49. Qaysi besh a’zoli geterosiklik birikmada (furan, tiofen yoki pirrol) tutash qo‘shbog’li dienlarning xossalari kuchli. U uchun malein angidrid bilan Dils-Alder reaksiya sxemasini yozing.

50. Furan, tiofen va pirrollarni qisman va to‘liq qaytarish reaksiyalarini yozing. Reaksiya mahsulotlarini nomlang.

51. Indolni sun’iy yo‘l bilan qanday olish mumkin? Indol va pirrolning kimyoviy xossalari taqqoslang.

52. Fisher usulida α - metilpiridin sintez qilish sxemasini yozing.

53. Quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshirish natijasida qanday birikma hosil bo‘ladi:



54. Quyidagi birikmalarning Fisher usulida ta’sirlashuvidan indolning qanday xosilalarini olish mumkin: a) metiletiketon va 2, 4 - dinitrofenilgidrazin; b) aseton va n-nitrofenolgidrazin; v) siklogeksanon va fenilgidrazin.

55. Indolga ketma-ket etil magniybromid va asetilxlorid ta’siridan qanday birikma hosil bo‘ladi?


56. Pirrol, indol va karbazolning kislotalik xossalari taqqoslang.


57. Benzol va piridinning tuzilish va xossalardagi o‘xshash va farqli tomonlari ko‘rsating.

58. a) Piridin bisulfit; b) piridin xlormetilat; v) piridinsulfotrioksid; g) N-oksipiridinlar olish sxemalarini yozing.

59. Pirrol va piridinga sovuqda kuchli kislotalarning ta’sirini taqqoslang. Nima uchun bu sharoitda pirrolga xos smola hosil bo‘lishi piridin bilan kuzatilmaydi?

60. Quyidagi o‘zgarishlarni to‘ldiring:





61. Piridinning: a) sulfolash; b) nitrolash; v) xlorlash reaksiyalarini yozing.

62. N-oksipiridinni nitrolash sxemasini yozing. Reaksiya mexanizmini tushuntiring.

63. Piridindan 4-nitropiridin hosil qiling.

64. Piridinni quyidagi birikmalar bilan reaksiyalarini yozing: a) $NaNH_2$; b) KOH ; v) CH_3Li .

65. Piridin asosida: a) β -brompiridin; b) nikotin kislota hosil qiling.

66. Barcha izomer aminopiridinlarni hosil qiling. Ularni azot kislotasi bilan reaksiyalarini yozing. Bu aminlardan qaysi biri barqaror diazobirikma hosil qiladi?

67. a) Elektrofil o‘rin olish reaksiyasiga piridindan oson kirishadigan hosilasini; b) α -xlorpiridinda faol xlori bo‘lgan hosilasini; v) beqaror diazoniy tuzini hosil qiladigan aminopiridinni; g) enol shaklda mavjud bo‘la oladigan oksipiridinlarga misollar keltiring.

68. Kumush ko‘zgu reaksiyasiga kirisha oladigan va bunda $C_5H_3ClO_3$ tarkibli birikma hosil qiladigan va bu birikmaning qizdirilishidan α -xlorfuran hosil bo‘ladigan $C_5H_3ClO_2$ tarkibli birikmaning struktura formulasini aniqlang.





69. Quyidagi xossalarni takrorlaydigan C_6H_6OS tarkibli birikmaning tuzilishini aniqlang: 1) kumush oksidining ammiakdag‘i eritmasi bilan reaksiyaga kirishadi. Natriy gipoxlorit ta’sirida α -tiofenkarbon kislota hosil qiladi.

70. Gidrolizidan suksinimid hosil qiladigan C_4H_3CIN tarkibli birikmaning tuzilishini aniqlang.

71. Sr_2O_3 yordamida oksidlanishidan 8-xinolin karbonkislota hosil qiladigan $C_{11}H_{11}N$ tarkibli birikmaning struktura formulasini aniqlang.

72. Ketma-ket qaytarilishi va azot kislotasi bilan ta’sirlashishidan 4-piridon hosil qiladigan $C_5H_4N_2O_2$ tarkibli birikmaning struktura formulasini yozing.

73. Quyidagi o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘ladigan birikmalarni nomlang:



TALABALAR BILIMINI BAHOLASH UCHUN

JORIY NAZORAT SAVOLLARI VARIANTLAR MAJMUASI

VARIANT №1

1. Organik kimyo faniga ta’rif bering.
2. 8, 10, 13 uglerod atomi tutgan alkanlarni formulalarini yozing.
3. Neftdan qanday alkanlarni olish mumkin.

VARIANT №2

1. Organik birikmalarning tabiiy manba’lari shaqida ma’lumot bering.
2. Butan, pentan, geksan izomerlarining tuzilish formulalarini yozing va nomlang.
3. Izoamilbromid va etilbromiddan Vyurts reaksiyasi bo‘yicha alkan sintez qiling.

VARIANT №3

1. Organik birikmalarni noorganik birikmalardan farqini ayting.
2. Geptan izomerlarini yozing va nomlang. Birlamchi, ikilamchi, uchlamchi va to‘rlamchi uglerod atomlarini belgilang.
3. Tarkibi C_8H_{18} bo‘lgan alkan birlamchi galoid alkildan Vyurts reaksiyasi bo‘yicha bitta modda sifatida hosil bo‘ladi, uni mononitrolansa, uchlamchi nitrobirikma hosil bo‘ladi C_8H_{18} ni tuzilishini aniqlang.

VARIANT №4

1. Organik birikmalarning tuzilish nazariyasi ta’rifi.
2. Tarkibi C_8H_{18} bo‘lgan alkanni uzun zanjirida 6 ta uglerod atomi tutgan izomerlarini tuzilish formulalarini yozing va IYuPAK bo‘yicha nomlang.
3. Geksanni xlorlash va nitrolash reaksiya tenglamalarini yozing.

VARIANT №5

1. Quyidagi uglevodorodlarni qaysi biri alkanlar: C_5H_{12} , C_7H_{14} , C_8H_{18} , $C_{10}H_{22}$, $C_{22}H_{44}$, C_8H_6

- n-Dekan, 2,5-dimetilgeksanlarni sintez qilish reaksiya tenglamalarini yozing.
- C_4H_8 , C_5H_{10} va C_6H_{12} larning izomerlarini tuzilish formulalarini yozing va sistematik nomenklaturada nomlang.

VARIANT №6

- Quyidagi alkenlarni tuzilish formulalarini yozing: 3-metilpenten-1, 2,3,5-trimetilgeksen-2, simm-metiletiletlen, nosimm-dipropiletlen.
- 3-brom-2,2-dimetilpentan va 3,4-dibrom-2,2-dimetilpentandan qanday reagentlar ta'sir ettirib alken olish mumkin.
- Galoidalkil va bir atomlik spirtlardan nosimmetrik- dimetiletlen, trimetiletlen va 3-metilgeksen-1 larni sintez qilish reaksiya tenglamalarini yozing.

VARIANT №7

- $CH_3CH_2(CH_3)C=C(CH_2CH_3)(CH_2CH_2CH_3)$ ning tsis- va trans- izomerlarini tuzilish formulalarini yozing va nomlang.
- 7 gram qish bog'li uglevodorodga 16 gram brom birikadi. Uglevodorodning molekulyar massasini aniqlang.
- Quyidagi izomer birikmalarni-2-metilgepten-3 va 2-metilgepten-2 qanday reaksiyalar orqali farqlash mumkin.

VARIANT №8

